

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OYDINLAR

BURUNGI VA BUGUNGI

JURNALISTIKA



Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur, bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi.

Shavkat MIRZIYOYEV

(4-sahifada o'qing.)

ERKIN VOHIDOV IJODIGA BAG'ISHLANGAN ADABIY FESTIVAL QATNASHCHILARIGA

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram adiblar, qadri yoshlarimiz!

Avvalo, barchangizni elimizning suyuqli farzandi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning betakror ijodiga bag'ishlangan bugungi festival – o'ziga xos adabiyot va san'at bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman.

Ma'lumki, xalqimizning aql-zakovati va azm-u shijoati bilan barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonda milliy adabiyot, madaniyat va san'atni rivojlantirish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi.

Zotan, ma'rifatparvar shoirimiz Abdulhamid Cho'lponning "Adabiyot yashasa – millat yashar" degan hikmatli so'zlarida chuqur ma'no bor.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o'rganish va keng tarqatib qilib, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonada milliy o'zligimizni anglash, azaliy ezgu qadriyatlarimizni saqlash va boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday o'ta muhim vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning Erkin Vohidov kabi buyuk va ardoqli farzandlarining qutlug' va o'lmas merosi, albatta, beqiyos o'rin tutadi.

O'ylaymanki, bu ma'tabar zotni ortiqcha ta'riflab o'tirishning hojati yo'q. Ulkan shoir va dramaturg, mohir tarjimon va o'tkir publitsist, taniqli jamoat arbobi sifatida Erkin Vohidovning asarlari milliy adabiyotimizning "oltin fondi"dan, yurtimiz va chet ellardagi ming-minglab adabiyot muxlislarining qalbidan munosib va mustahkam o'rin olgani bilan har qancha g'ururlansak, arziydi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda ulug' shoirimiz xotirasini e'zozlash va boy ijodiy merosini o'rganish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Xususan, Marg'ilon shahrida ijodkorlar bog'i bunyod qilinib, sevimli adibimizning haykali va muzeyi ochildi. Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi tashkil etildi. Poytaxtimizning Adiblar xiyobonida u kishiga bag'ishlab muhtasham yodgorlik obidasi qad rostladi. Shoir tavalludining 80 yilligi yurtimiz bo'ylab keng nishonlandi.

Men Erkin Vohidovdek serqirra iste'dod egasi, haqiqiy vatanparvar va millatparvar inson bilan zamonadosh va maslakhod bo'lib yashash nasib etganidan baxtiyorman.

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan bugungi jo'shinq islohotlarimizda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf singari betakror ijodkorlarimizning o'rni har qadamda sezilib turadi. Ammo hozirgi kunda yetishib kelayotgan iste'dodli yoshlarimiz – mening aziz va qadri farzandlarim buyuk ustozlarining yo'lini munosib davom ettirayotgani bizga taskin beradi.

Bugungi ijodiy anjuman doirasida ardoqli shoirimizning otashin va dilbar she'rlari yangrayotgani, u kishining g'azallari asosida aytilgan qo'shiqlar tanlovi o'tkazilayotgani, bu so'lim maskanda Erkin Vohidov nomida bog' barpo etilayotgani tahsinga sazovordir.

Biz ushbu adabiy festivalni har yili an'anaviy tarzda o'tkazish taklifi qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, buyuk tarixga ega bo'lgan, o'z o'tmishidan g'ururlanib, ayni vaqtda, kelajakka yuksak ishonch bilan intilayotgan bugungi o'g'il-qizlarimiz ma'naviy buloqlarimizdan bahramand bo'lib, Yangi O'zbekistonning chinakam bunyodkorlari bo'lib voyaga yetishida mana shunday anjumanlarning o'rni va ta'siri beqiyos, albatta.


Fursatdan foydalanib, ushbu tadbir tashkilotchilari – Toshkent viloyati hokimligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, "UzReport" telekanali va "Turonbank" mutasaddilariga, shoirning farzandlari va barcha muxlislariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Festival qatnashchilarini, uning g'olib va sovrindorlarini, turli hududlardan kelgan yoshlarimizni yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sog'lik-salomatlik, ijodiy ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUNOSABAT



Yaqinda, aniqrog'i, 16-may kuni Alisher Navoiy nomidagi kinochilar uyida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida o'tkazilgan samimiy muloqot soha rivojida g'oyat muhim bir hodisa bo'lganini alohida qayd etmoq joiz. Bu – davlatimiz rahbarining kinematografiya muassasalariga ikkinchi tashrifi. Dastlab koronavirus pandemiyasi avjiga chiqqan 2020-yilning 20-noyabrda to'liq rekonstruksiya qilinib, qayta ta'mirlangan "O'zbekfilm" kinostudiyasi faoliyati bilan tanishib, bir guruh kinoijodkorlar bilan dildan suhbat qurgan edilar. Umr oqar suv – shunga ham oradan uch yarim yil vaqt o'tibdi. Bu safar Prezidentimizni qisqa vaqt ichida butunlay yangicha qiyofa va mazmun kasb etgan Kinochilar uyida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston kino san'ati muzeyida kutib oldik.

Ochig'i, bu galgi uchrashuv biz uchun har qachongidan ko'ra hayajonli va mas'uliyatli bo'ldi. Sababi, biz mamlakat rahbarini muzey ekspozitsiyasi bilan tanishtirish asnosida keyingi yetti yilda o'zbek kinematografiyasida amalga oshirilgan ishlar – suratga olingan filmlar, iste'doqlarni yuzaga chiqarish, kadrlar tayyorlash, milliy kinomizni targ'ib etish borasida olib borilgan ishlar, erishilgan natijalar hamda kelgusi rejalarimiz haqida hisob berishimiz kerak edi.

(Davomi 2-sahifada)

FESTIVAL

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon va jamoat arbobi sifatida xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. Bo'stonliq tumanida shoir ijodiga bag'ishlab o'tkazilgan adabiy festival qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tabrik yo'llagani ham Erkin Vohidov fenomeni ijtimoiy-ma'naviy hayotimizda naqadar muhim o'ringa egaligini yaqqol ko'rsatadi.



"YURTDOSHIM, BOG'INGGA BIR NIHOL QADA..."

U mumtoz adabiyotimiz an'alarini davom ettirib, betakror g'azallar, qasidalar, muxammaslar bitdi, satira va yumorga boy she'rlari bilan ijtimoiy muammolarga, kishilar fe'l-atvori, tabiatidagi qusurlarga ko'zgu tutdi. "So'z lato-fati" kitobi esa ona tilimizning teran ildizlarini, so'z boyligini, serjilva imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

Bu asarlar bilan tanishgan kishi borki, boshqalarga ham undan iqtiboslar, go'zal misralar-u hikmatlar ulashishga ishtiyoq tuyadi. An'anaviy ijodiy festival ham o'zbek xalqining zukko va shijoatli adibi, chinakam ma'noda xalqimiz va madaniyatimiz timsoli bo'lgan Erkin Vohidovning sehirli va ibratli asarlari orqali yoshlarning ona tilimizga mehrini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish maqsadida ilk bor tashkil etildi.

Shu yilning 23-may kuni Bo'stonliq tumani "Green Hills Resort" oromgohida ulug' shoirimiz xotirasiga bag'ishlangan adabiy festival bo'lib o'tdi. "UzreportTV", "FTV" telekanallari, "Turon bank" va Toshkent viloyati hokimligi tomonidan tashkil etilgan festival ko'tarinki kayfiyatda boshlandi.

Tadbirning ochilish qismida O'zbekiston Qahramoni, taniqli tarjimon Ibrohim G'afurov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti

mudiri, shoir Nodir Jonuzoq Erkin Vohidov haqida yorqin xotiralari bilan o'rtoqlashib, uning ibratli hayot yo'li, serqirra ijodi haqida fikr bildirishdi. "Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada" misralari haqida alohida to'xtalgan taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning tashabbusi bilan oromgoh hududida Erkin Vohidov nomidagi bog' tashkil qilinadigan, ilk nihollar shu kunning o'zida ekanligi aytilgan.

Festival davomida Erkin Vohidov she'rlari asosida bahri bayt o'tkazilib, shoir she'rlari yana bir bor yodga olindi. Mushoirada Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'quvchisi Shahlo Safarova g'olib deb topilib, tashkilotchilarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, ustoz shoirning sevimli mashg'ulotiga bag'ishlab "Shaxmat chelleni" tashkil qilindi. Unda ustoz adiblar, yosh ijodkorlar, she'riyat ixlosmandlari dona surib, bu aqliy sport bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish qilishdi.

Tadbir yakunida shoir she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar taniqli xonandalar tomonidan kuylandi. Festival ijod kayfiyatida, she'r ruhida yakunlandi. Mehmonlar oromgohdan qaytishdi, ammo ularning ko'nglida Erkin Vohidov siymosiga qalban yaqinlik tuyg'usi muhrlanib qoldi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu festival barchaning qalbidan she'riyatga mehr degan "bir nihol qadadi".

Shavkat DO'STMUHAMMAD

BUGUNNING GAPI

MA'NAVIYAT – INSON BO'LIB YASHASH DEGANI

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek HASANOV bilan suhbat

– So'nggi yillarda ma'naviyat haqida ko'p va xo'b gapirdik. Oqibatda bu so'zni eshitgan kishining g'ashi keladigan, ensasi qotadigan bo'lib qoldi. Siz bu holatga qanday munosabat bildirarsiz?

– Ma'naviyat tushunchasi atrofida doim bahs-munozaralar ko'p bo'lgan. Har kim o'zicha fikr bildirgan, qarashlarini ilgari surgan. Hatto, ma'naviyat kerak emas, deb hisoblaydigan toifalar ham bor. Asl haqiqat esa shuki, odamlarning kundalik hayotida, jamiyatda ma'naviyatning o'rni va ahamiyati beqiyos. Taniqli adibimiz O'tkir Hoshimov ta'kidlaganidek, "odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi ma'naviyatdir". Afsuski, bugun mazkur chegaraga urg'u berilgani sayin unga yot ko'z bilan qaraydigan toifalar uchrab turibdi. Ma'naviyat aslida har birimizning botinimizda bo'ladi.

Ma'naviyatli kishilar Vatanni ham, elni ham indamay seveveradi. Xalqning tashvish-muammolariga yechim izlayveradi. Yolg'on va puch va dalarga uchib ketavermaydi. Shu ma'noda, millatning ma'naviyatini o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, eng avvalo, islohotlarni o'zidan, oilasidan, yon-atrofidagi do'stlaridan boshlashi kerak.

Odamlarni "ma'naviyatli" va "ma'naviyatsiz"ga ajratish ham mavhum tushuncha. Har kimning qalbidan u yoki bu darajada ma'naviyat ildizlari mavjud. Chunki har bir odamning ko'nglidagi ezgu orzu-niyatlari, xayrli amallari, uyi, qarindoshlari, Vatani – ma'naviyat. Faqat yon-atrofdagi muhit, turli axborot xurujlari, yovuz niyatli kimsalarning sa'y-harakatlari kabi omillar ko'pchilikni yo'ldan adashtirib qo'yishi mumkin. Shu ma'noda ma'naviyat – inson bo'lib yashash degani.

– Hozirgi zamon yoshlari uchun o'n yil oldingi gaplar ham qiziqarli emas.



Ular doim yangilikka intilib yashashni ma'qul biladi. Shu ma'noda, ma'naviyat deb faqat ajdodlarimiz yutuqlarini ko'z-ko'z qilaverish ham samarali natija bermasligi mumkin. Sohaga yangicha nazar bilan boqish fursati kelmadimikin?

(Davomi 3-sahifada)

OQ YO'LI

KATTA HAYOT OSTONASIDA



Ertaga, 25-may kuni mamlakatimiz bo'ylab 2023-2024-o'quv yilining so'nggi qo'ng'irog'i jaranglaydi. Bu yil yurtimizdagi 10163 ta maktabda 992 213 nafar o'quvchi 9 va 11-sinfni bitiradi. Yil bo'yi maktab ta'lim-tarbiyasini olgan bolalar bir yoshga ulg'ayib, yuqori sinfga o'tishadi va yangi o'quv yili oldidan kuch yig'ish uchun yozgi ta'tilga chiqishadi.

11-sinf o'quvchilari esa, bu yil yozgi ta'tilga emas, o'zlari ko'pdan kutgan mustaqil hayot uchun kurashga bel bog'lashadi. Bolalar yoshi ulg'ayib borar ekan, ta'lim jarayonida turli fanlardan imtihonlar topshirish bilan birga, hayotning ilk sinovlaridan ham o'tib borishadi. Yangi do'stlar orttiradi, dunyoni kashf etishadi.

(Davomi 2-sahifada)



Boshlanishi 1-sahifada.

Axir, Prezidentimiz ushbu soha vakillariga juda katta ishonch va umid bilan qarab, yaqin vaqtgacha tasavvur ham qilib bo'lmaydigan sharoitlarni yaratib berdilar. Yetti yil oralig'ida kino san'atini rivojlantirish bo'yicha o'ndan ortiq Farmon, qaror va farmoyish qabul qilindi.

Bunday e'tibor va g'amxo'rlikning qadriga yetib, belgilangan vazifalar ijrosini aniq amaliy ishlar vositasida namoyon etishimiz zarur edi. Bir necha oy davom etgan tinimsiz izlanishlar, yangi-yangi dizayn takliflari asosida ekspozitsiya qurish, o'zgartirish, takomillashtirish natijasida maqtansa, g'ururlansa arzigulik ma'rifiy-badiiy bir koshona bunyod etildi.

Kinematografiya sarhadlarida keyingi yillarda olib borilgan islohotlarning ulug'vor va keng manzarasi aks ettirildi bu yerda. Shuningdek, muzey ekspozitsiyasining bir qismida O'zbekistonda ushbu san'atning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq qariyb yuz yillik tarix jonli lavhalar, noyob hujjat va ashyoviy dalillar vositasida ko'rsatib berildi.

Shu o'rinda ayrim xotiralar ham yodga tushdiki, ularni aytmasak bo'lmas. Prezidentimiz shu kuni kinochilar saroyida bo'lib o'tgan muqot chog'ida o'tgan asrning 70-80-yillarida, endigina institutni bitirib, qizg'in ish boshlagan kezlarda ushbu maskanda o'tkazilgan bir anjumanda so'zga chiqib, o'sha paytlarda O'zbekistonga rahbarlik qilgan Sharof Rashidovning nazariga tushganini ham tilga olib o'tdilar. Ana shunda beixtiyor bundan yigirma yilcha avval yuz bergan bir voqea yodimga tushdi. Aynan shu paytda hamma yo'nalishlarda avjiga chiqqan "privatizatsiya" – xususiyashtirish shiori ostida respublikadagi yuzlab kinoteatrlar turli tijoriy tadbirkorlar, hatto qo'g'ozda bor-umalda yo'q xorijiy firmalar tasarrufiga o'tkazilayotgan edi. Xalqimiz "Panorama" deb e'zozlaydigan ushbu tarixiy maskan ham yuqoridagi ro'yxatga tushgan edi. Poytaxtning qoq markazidagi bu gavjum binoni "tungi klub" va hatto bir chekkasida hammom – "sauna" qurishni rejalashtirgan ayrim biznesmenlar katta lavozimdagi amaldorlar ko'magida o'z niyatiga erishay deb turgan vaziyat edi. Yaqinda Bosh vazir lavozimida faoliyat boshlagan Shavkat Mirziyoyev ayni shu vaziyatda qat'iyat va iroda ko'rsatib, "yo'q" deb ayta oldi va kino saroyini ma'naviyat o'chog'i, xalqning madaniy maskani sifatida saqlab qoldi. U kishi saroy binosining 1977-yildayoq "zamonaviy me'morlik namunasini" sifatida madaniy obidalar ro'yxatiga kiritilganini asos qilib keltirib, kino saroyining sotib yuborilishiga yo'l bermadi.

"Yangi O'zbekiston kino san'ati" muzeyining asosiy ekspozitsiyalari to'liq yangi davrning filmlariga bag'ishlangan. Albatta, so'nggi yetti yillik davr bilan qariyb yuz yillik tarixning nisbati tomoshabinda savol uyg'otishi tabiiy. Gap shundaki, o'zbek kinosisning milliy san'at sifatida yangicha mazmun va miqyos kashf etish ko'lami



so'nggi yetti yilda yuz berdi, desak, sira mubolag'a emas.

Shu o'rinda birgina filmlar suratga olish hajmlarini qiyoslab ko'raylik. Sobiq ittifoq davrida "O'zbekfilm" kinostudiyasiga har yili 6 tagina badiiy film suratga olish uchun mablag' ajratilardi. Shunda ham bu ijodiy mahsulotlarning yarmi mahalliy rejissyorlarga tegishli bo'lsa, yarmi sobiq Markazda o'tirgan kinorejissyor va ssenariyavislarining "haqi" hisoblanar edi. "Samolyotlar qo'noimadi" (1962), "107-instruksiya" bo'yicha to'ntarish" (1982), "Chuqurlikdan reportaj" (1984), "Leytenant Nekrasovning aybi" (1985), "Qo'pol qo'nish" (1985) kabi "O'zbekfilm"da suratga olingan, xalqimizga ham, O'zbekistonga ham mutlaqo aloqasi bo'lmagan ko'plab filmlar shu tariqa paydo bo'lgan edi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng dastlabki davrlarga kelib kino sohasi deyarli unutildi. Keyinroq esa filmlar yaratishdan ko'ra ko'proq kinoteatrlar, kinoqurilma va boshqa mulklarni sotishga zo'r berildi. Shu tariqa kinotarmoq "goh u, goh bu qirg'oqqa urilib", rosmana qanot yozolmay, tayin rivoj topmay yashadi. Yuzlab kinoijodkorlar sohadan butunlay chiqib ketdi. Kinematografiyani qayta tiklashga bo'lgan urinishlar rag'bat va munosabatning tizimli yo'lga qo'yilmagani uchun nochor ahvolda qolaverdi.

2017-yilga kelib vaziyat tubdan o'zgardi. Badiiy, hujjatli va animatsion filmlar yaratish hajmi bir necha barobarga oshirildi, rejissyorlar, ssenariyavislar, operator, rassom va boshqa mutaxassislar yana o'z kasbiga qaytdi, yangi, yosh iste'dodlar bo'y ko'rsatdi, "O'zbekfilm" kinostudiyasining mog'or bosgan, mudom rutubati ufurib turadigan binosi to'liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash uchun katta mablag'lar ajratildi. Natijada u tez orada jozibador, gavjum ijodiy dargohga aylandi.

2017-yilgacha bo'lgan davrda "O'zbekfilm"ning binosi va hududi go'yoki uning tanasiga kanadek yopishib olib, "qonini so'rib yotgan" har xil tijoriy firma, do'kon, qurilish ashyolarini ishlab chiqaruvchi katta-kichik ijador korxonalaridan tozalanib, faqat kino sohasiga yo'naltirilgan yumushlar bilan mashg'ul yirik muassasa holiga keltirildi. 2021-yili Prezidentimizning Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash haqidagi qarori qabul qilindigach, bu maskan azim poytaxtimizning eng diltortar go'shasiga aylandi. Tabiiyki, ushbu dargohda hozirda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, umuman, soha ijodkorlari va texnik kasb vakillari muntazam ish va ijod bilan mashg'uldirlar.

Bunday ulkan o'zgarishlar natijasi o'laroq, mamlakatimiz rahbari kinotarmoq oldiga

qo'yayotgan vazifalar – tarixiy va zamonaviy mavzularda yetuk filmlar yaratish, milliy qadriyatlarimiz, bezavol an'analar, ijod, yaratish, bunyodkorlik zavqi, yurt hayotiga daxldorlik tuyg'ularini kino vositasida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongini va qalbiga singdirish, Vatanga muhabbat va sadoqat hissiyatini yuksaltirish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi. Ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan yuzlab yangi badiiy, hujjatli, animatsion filmlar yaratildi, tanlov va festival o'tkazilmoqda. Bu asarlar "Kino karvoni" vositasida bepoyon yurtimizning shahr-u qishloqlari, mahalla-ovullariga, chekka-chekka hududlarigacha yetkazilmoqda, xalqimiz sevgan kino ustalari, aktyor-aktrisalari, yosh va faxriy ijodkorlar joylarda xalqimiz bilan uchrashib, ular bilan hamnafas bo'lishmoqda. Shukrki, xalqimiz san'atkorlarini suyadi, e'zozlaydi, ularning so'ziga quloq tutadi.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda o'zbek kinosi va soha zahmatkashlarining qadami yetti iqlimga yetdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Milliy filmlarimiz Yevropa, Amerika va Osiyodan tortib, bu yog'i Afrika-yu Avstraliyada ham o'tkazilayotgan kinofestivallarda namoyish qilinib, nufuzli mukofot va sovrinlarni qo'lga kiritaypti.

Kino san'ati muzeyi ekspozitsiyasining eng muhtasham bo'limlaridan biri – bu Imom

Termiziy, Bahodir Yalangto'sh, Amir Umarxon, Nodirabegim, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Zulfiya va Hamid Olimjon, Said Ahmad va Saida Zununova, Abdulla Oripov singari ulug' siymolarga bag'ishlab suratga olingan o'nlab tarixiy filmlarimiz uchun tayyorlangan "Tarixiy liboslar ko'rgazmasi" hamda "Yangi O'zbekiston kinosisning xalqaro e'tirofi" deb nomlangan sovrinlar stendi har qanday tomoshabinning e'tiborini jalb qiladi. Agar 2017-yilgacha olingan xalqaro mukofotlari soni o'n-o'n beshta atrofida bo'lsa, so'nggi yetti yilda o'zbek kinofilmilari va kinoijodkorlari nufuzli xalqaro kino tanlovlarda 60 ga yaqin sovrinlarga sazovor bo'lib, dunyo miqyosida e'tirof qozondilar.

Yurtboshimizga hujjatli kino sohasida madaniyat, san'at, adabiyot, tarix, arxeologiya, arxitektura, sport, turizm, diniy-ma'rifiy va boshqa ko'plab mavzular bo'yicha filmlar yaratish jarayoni va uning natijalari haqida hikoya qiluvchi ko'rgazma ham taqdim etildi. Muhtaram Prezidentimiz bu ekspozitsiyani ham diqqat bilan ko'zdan kechirib, o'zlarining fikr-mulohazalari va takliflarini bildirdi. "Ustoz va shogird" ustaxonasi, xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan animatsiya studiyasi, xotira portretlar galereyasi, zamonaviy badiiy filmlar ko'rgazmalari, kinomizda oxirgi yillarda yuz bergan ijodiy jarayonlar, xorijdan raqamlashtirilgan holda sotib olingan 100 ta retro-filmlarimizning "oltin fondi" bilan ham tanishdilar. "Ipak yo'li duronasi" deya yangi nom bilan tiklanib, 2021-yildan buyoni uch marotaba o'tkazilgan Toshkent xalqaro kinofestivalining unutilmas lahzalari, jahongar mashhur rejissyorlar, aktyor va aktrisalari, kinoarboblarining tasvirlari aks etgan alohida ekspozitsiya u kishining nazaridan chetda qolmadi.

Muzey bilan tanishgach, muhtaram Prezidentimiz kinochilar uyining anjumanlar zalida bir guruh kinoijodkorlar bilan uchrashib, ular bilan samimiy suhbat qurdirdi. E'tirof va tahsinlarini izhor etib, kino san'atining hozirgi global jarayonlardagi o'rni va ahamiyati, ma'naviy qadriyatlarimizni yoshlar qalbi va shuuriga ta'sirchan usullarda yetkazish, bugun erishayotgan yuksak yutuq va natijalarimizni kino vositasida dunyoda targ'ib qilish bo'yicha bir qator muhim vazifalarni belgilab berildi.

Uchrashuvda Prezidentimizning tashabbusiga asosan ishlab chiqilgan "Tirik tarix" loyihasi doirasida 50 dan ortiq tarixiy, tarixiy-biografik filmlar yaratish dasturining taqdimoti ham o'tkazildi.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusi o'zbek kinoijodkorlarining so'nggi yetti yillik faoliyatiga berilgan xolis va haqqoniy baho bo'ldi, deyish mumkin.

Shuhrat RIZAYEV,
Kinematografiya agentligi
direktorining birinchi o'rinbosari

Boshlanishi 1-sahifada.

Ammo barcha voqea-hodisalar ichida o'quvchilar uchun maktabdagi birinchi va so'nggi qo'ng'iroq orasidagi ta'lim jarayoni olamni anglashdagi eng muhim bosqichdir. Aftotun akademiyasida ilk bor chalingan qo'ng'iroq hamon dunyoda bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun an'anaviy va unutilmas voqea bo'lib qolmoqda. Bu yil respublikamiz maktablaridagi 11-sinf bitiruvchilarining 14 mingdan ortig'i oltin va kumush medallarga sazovor bo'lishadi. Ularning 42 nafari xalqaro fan olimpiadalari g'olibi, 3 nafar bitiruvchi qiz esa, o'quvchilik davridayoq Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga loyiq deb topildi. Bu muvaffaqiyatlarning barchasi maktab o'quvchilarining hayotda aniq maqsad sari intilayotganidan dalolat beradi.

So'nggi qo'ng'iroq arafasida barcha maktablarda o'tgan o'quv yilida erishilgan natijalar sarhisob qilindi, ana shunda yangi o'quv yilida qilinaajak ishlar oydinlashadi. Umuman, mamlakatimiz maktabgacha va maktab ta'limi tizimi taraqqiyot yo'lidan borayotgani shunday kunlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu yil poytaxtimizdagi 341 ta umumta'lim maktabini 79751 nafar o'quvchi bitirmoqda. Ularning 45757 nafari 9-sinf, 33994 nafari 11-sinf o'quvchilari. Umumta'lim maktablarining 4-sinfini 46469 nafar o'quvchi yakunlab, 5-sinfga o'tishadi. Agar umumiy ta'limning har uch bosqichi bitiruvchilari soniga qarasangiz, maktab o'quvchilari soni yildan yilga ortib borayotgani ma'lum bo'ladi.

Toshkent shahridagi 11-sinf bitiruvchilarining 1189 nafari maktabni imtiyozli attestat bilan yakunlab, ularning 136 nafari kumush va 1053

nafari oltin medal bilan taqdirlanadi.

Poytaxtlik bitiruvchi o'quvchilar joriy o'quv yilida respublika fan olimpiadalarida o'nga yaqin oltin va kumush medallarni qo'lga kiritishdi. Bundan tashqari, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikda tashkil etilgan fan olimpiadalarida 61 nafar o'quvchi g'olib bo'lib, muddatidan oldin talabaliq maqomiga erishdi. Shuningdek, shahar bo'yicha 3609 nafar bitiruvchi sinf o'quvchilari fanlarni o'zlashtirish va chet tilini bilish bo'yicha xalqaro va milliy sertifikat olishgan. Demak, ularni ham ishonch bilan talabalar safiga qo'shish mumkin. Xullas, 11-sinf bitiruvchilarining 10-15 foizi hali so'nggi qo'ng'iroq jaranglamay turib, talaba bo'lishgan.

"Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", degan edi Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida. Bu borada Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalardan ko'ngil to'ladi. Prezidentimiz aytganidek, ular to'g'ri yo'lidan borayotganiga amin bo'lalimiz. 2023-2024-o'quv yilida Agentlik tizimidagi maktablar soni 13 taga ko'payib, jami 205 taga yetdi. Bu yil 14 ta Prezident maktabida 2352 nafar, 9 ta ijod maktabida 1788 nafar, 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 66146 nafar, Yangi

KATTA HAYOT OSTONASIDA



O'zbekiston universitetida 655 nafar o'quvchi-yoshlar ta'lim olishdi. Prezident maktablarini 319 nafar, ijod maktablarini 263 nafar, ixtisoslashtirilgan maktablarini 5868 nafar o'quvchi tamomlamog'ida. Bu o'quvchilarning mustaqil hayotga ham, ta'limning keyingi bosqichiga ham tayyorligi bizni mamnun etadi. Jumladan, Prezident maktablari bitiruvchilarining 67 foizi xalqaro matematika va ingliz tilini bilish darajasini baholovchi (SAT) sertifikatlariga ega bo'lishdi. Bu o'tgan yilga nisbatan 17 foiz ko'p demak.

Agentlik tizimidagi maktablarni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi peshqadam ta'lim

muassasalari deb aytish mumkin. Hali yurtimizdagi barcha maktablar bosqichiga-bosqich Prezident maktablariga aylanishiga ishonchimiz komil.

Shuningdek, Agentlik tasarrufidagi maktablarda ishga ijodiy yondashuv, no'anaviy ko'rik-tanlovlar o'quvchilarning ilm olishga ham tayyorligi bizni mamnun etadi. Jumladan, bu yil o'quvchilarning dasturlash va robototexnikaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, yoshlar o'rtasida ushbu yo'nalishni ommalashtirish maqsadida "ROBO-CODING" olimpiadasi, matematika fanidan qizlar olimpiadasi tash-

kil etildi. Hatto o'qituvchilar orasida fan olimpiadasi o'tkazilib, unda yuqori natija qayd etgan 10 nafar o'qituvchiga Fan kengashiga a'zolik sertifikatini topshirildi. Ular mahalliy va xalqaro olimpiadalarga o'quvchilarni tayyorlash, tegishli materiallarni ishlab chiqish jarayonlariga, turli nufuzli tadbirlarga jalb etiladi. Agentlikka qarashli maktab o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida 17 ta (2 ta oltin, 5 ta kumush, 10 ta bronza) medalni qo'lga kiritishdi. Xususan, Qozog'istonning Almati shahrida o'tkazilgan 20-xalqaro Jautikov olimpiadasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 10-sinf o'quvchisi Asilbek Sunna-

rov informatika fanidan oltin medal bilan taqdirlangan ilk o'zbekistonlik o'quvchi bo'ldi. Ushbu fan olimpiadasida bitta kumush va to'rtta bronza medallar ham qo'lga kiritildi.

Prezident maktablari bitiruvchilarining barchasi muddatidan oldin nufuzli xorijiy oliyog'hlarda o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lishsa, ijod maktablari bitiruvchilarining 90 foizi (237 nafari), ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchilarining 56 foizi (3286 nafari) xorijiy tillar bo'yicha xalqaro va milliy darajadagi sertifikatni qo'lga kiritishgan. Ijod maktablari bitiruvchilarining 56 foizi (148 nafari) muddatidan oldin xorijiy va mahalliy oliyog'hlardan takliflarni qabul qilishgan.

Ta'kidlash joizki, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga qabul darajasi bundan 20 yil avval bor-yo'g'i 10 foiz bo'lgan bo'lsa, ayni paytda 40-45 foizga yetdi. Yoshlarning ilm sari yo'llarini ochish, ularga katta imkoniyatlar yaratish niyatida keyingi yillarda respublikamizda ko'plab oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Qolaversa, bugungi yoshlar Yevropa va Amerikada, butun dunyodagi nufuzli institut va universitetlarda ta'lim olishlari uchun barcha choralar ko'rilmog'ida.

"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasida, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan konseptual g'oyani chuqur anglab yetgan o'qituvchi-murabbiylarimiz yana bir marrani egalladilar. Mazkur g'oya asosida yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayoni esa jadal davom etib, o'zining ijodiy natijalarini bera boshladi.

Humoyun AKBAROV



MA'NAVIYAT – INSON BO'LIB YASHASH DEGANI

Boshlanishi 1-sahifada.

– Ma'naviyat sohasida nafaqat zamon bilan hamnafas, balki Prezidentimiz ta'kidlaganidey, bugungi hayotdan o'n qadam oldinda yurish shart. Bu – davr talabi. O'tgan yili Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari "Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlod tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?" singari savollarni o'rtaga qo'ygan edi. O'zini ziyoliman degan har bir millatdoshimiz bu savollarni har kuni, har soatda o'ziga o'zi berishi o'ta muhim va dolzarb. Boisi, sohada qilinayotgan islohotlarining hammasi millat ertasiga, Vatana taqdiriga, yurt kelajagiga bevosita daxldor. Shu bilan birga barchamiz hamjihatlikda savollarga javob topishimiz, muammolarga yechim axtarishimiz zarur.

Chindan ham, axborot texnologiyalar rivojlangan, axborot almashuvi tezlashgan hozirgi zamon bolasiga o'n yil oldingi emas, hatto bir soat oldin aytilgan gap ham qiziq bo'lmagligi mumkin. Ammo ularning shijoati, kuch-g'ayrati, intiluvchanligini ko'rib odamning havasi keladi. Shu bilan birga, ularning qiziqish va qarashlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Bunday yoshlarning kuchi noto'g'ri maqsad va g'oyalarga yo'naltirilishiga yo'l qoymasligimiz kerak. Jang maydonida ham raqiblar dushmanining eng zaif joyini topib zarba berishga harakat qiladi. Shu ma'noda, bugungi global axborot maydonida yoshlarimiz turli g'arazli kuchlarning nishonida qolib ketmasligi lozim. Globallashuv sharoitida inson ongi va qalбини zabt etish masalasi o'rtaga chiqmoqda. Shunday ekan, bu borada kurash keskin tus olayotgan davrda yoshlarimizni xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e'tiqodi va qat'iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish shart.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi turli davlat tashkilotlari, vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda katta loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirib turibdi. Qolaversa, bugun faqat targ'ibot tadbirlari bilan ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayni paytda markaz faoliyatining 30 foizini an'anaviy targ'ibotga, 40 foizini raqamli targ'ibotga va 30 foizini amaliy-metodik qo'llanmalar yaratishga yo'naltirmoqchimiz.

Millat tarbiyasi va ma'rifatining rivojlanishida ziyolilarning o'zaro birlashuvi va fidoyiligi juda muhim. Zero, Cho'lpon aytganidey "millatni uyg'otish – uyg'onganlarning vazifasi"dir. Shu sababli markazimizda ziyolilarni yagona maqsad yo'lida jipslashtirish, yoshlarni yo'naltirish, jamiyat hamjihatligini ta'minlash, vatanparvarlik hissini kuchaytirish kabi qator yo'nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirishni ko'zlab turibmiz.

– **Roppa-rosa bir asr burun jadid bobolarimiz "Najot – ta'limda" degan g'oyani ilgari surib edi. Hozir oradan ko'p vaqtlar o'tib ketdi. Odamlarning hayotga qarashlari, tutumlari o'zgaradi. Xo'sh, bugun ma'naviy kamolotning boshlang'ich nuqtasi qayerda: ta'limdani yoki tarbiyada?**

– Insonning qalbi o'zgarsa, uning ma'naviyati ham o'zgaradi. Jadidlar ham birinchi galda odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish orqali jamiyatni isloh qilishga intilgan. Ilmni ana shu ezgu maqsad yo'lida najotkor kuch deya bilgan. Hozir ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar ma'rifatparvar bobolarimizning orzu va maqsadlariga hamohang. Prezidentimizning "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodak zarur", degan so'zlari zaminida ayni shu haqiqat mujassam. Shu bois mamlakatimizda ta'limni tarbiya bilan birgalikda rivojlantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Yanada soddaga qilib aytak, bir inson o'ldira tug'ilib, mahallada ulg'ayadi. Maktabda ilm olish orqali esa ma'naviy tarbiyaning uzviyligi ta'minlanadi.

Prezidentimiz Surxondaryo viloyatiga tashri fi chog'ida 5-sektor sifatida "Ma'naviyat sektori"ni tashkil qilish, bu borada "Surxondaryo tajribasi"ni o'rganish vazifasini belgilab berildi. Ilgari surilgan mazkur ezgu harakat bugun har bir hududda tashkil etilgan sektorlar jamiyatdagi mavjud muammolarga tizimli yondashib, sohadagi vazifalarni belgilab olishda qo'l kelmog'ga. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish bilan birga, aholi keng qatlamini kitobxonlikka jalb etish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'atga oshno qilish, milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirishga keng yo'l ochilmoqda. Shuning qatorida tashkilot va korxonalarining mas'ul rahbarlari, ziyolilar birlashtirilgan holda, hududlarning ijtimoiy-ma'naviy xaritasi yaratilmoqda. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tuzilgan olimlar,



tadqiqotchilar, ziyolilar, soha mutaxassislaridan iborat ishchi guruh yangi sektorning ish samaradorligini o'rganmoqda. Sektorlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha namunaviy metodik qo'llanmalar, tavsiyaviy yo'riqnoma yaratilmoqda.

Bugun ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli markazda olimlar, soha mutaxassislar tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konsepsiyasi loyihasi tayyorlanmoqda. Mazkur hujjatda go'dakka ona qornidaligidan boshlab, to ulg'aygunicha beriladigan e'tibor, tarbiya, ma'rifiy ozuqa asoslari yaratilmoqda. Shuningdek, konsepsiyada ziyolilarning o'z bilganlarini o'zgalarga o'rgatishi masalasiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Faol fuqarolar safining eng oldingi qatorida ziyolilar bo'lishi haqidagi tashabbus ishlab chiqilmoqda. Agar u bugun "menga tinchlik kerak" desa, jamiyatda notinchlik ko'payaveradi, u "men gapirmayman" desa, dushmanlarimizni "minbar"ga chiqargan bo'ladi.

– **Bugun odamlar kitob o'qimayotgan ortidan ma'naviyatimiz ham qashshoqlashib ketayotganidan qayg'uryapmiz. Dunyoda bu borada ahvol qanday? Markaz tomonidan jahon tajribalari ham o'rganilyaptimi?**

– Kitob – inson tomonidan yaratilgan eng katta mo'jiza. Chunki kitob orqali har kuni uyingizda yozuvchi, olim, donishmandlar bilan xayolan muloqot qilasiz.

Savolga keladigan bo'lsak, kitob o'qilmayapti, deb noligan bilan jamiyatda kitobxonlik shakllanib qolmaydi. Eng avvalo, nima uchun o'qilmayotganini o'rganib ko'rish kerak. So'rovnomalari o'tkazib, tadqiqotlar uyushtirish zarurdir, balki. Xorijiy davlatlarda muntazam odamlarning qanday, qancha kitob o'qigani haqida tadqiqot olib borib turiladi. 2022-2023-yillarda o'tkazilgan so'rovnomada Yevropa, AQSh, Osiyo, Avstraliya, Kanada, Afrika va Janubiy Amerika aholisi o'zlarining kitobxonlik odati va sevib o'qiydigan janrlari haqida fikr bildirdi. Ijtimoiy so'rovnomada qatnashganlarning 27 foizi bir yilda 20 dan ortiq, 32 foizi 1-5 dona kitob mutolaa qilganini aytgan. Shuningdek, ularning 18 foizi 6 tadan 10 tagacha, 19 foizi esa 11 dan 20 tagacha turli mavzularda asarlar o'qigan. Natijada amerikalik va britaniyalik kishilar ko'p kitob o'qigani oydinlashgan. 2022-yilda dunyodagi eng ommabop janrlar uchligiga tarixiy kitoblar (34 foiz), detektiv hikoyalari (33 foiz) va avtobiografiya-memuar asarlar (31 foiz) kirgan.

Fikrimcha, bugun jamiyatda kitobxonlik darajasi pasayganini quruq gaplar bilan iddao qilmasdan amaliy ishlarga o'tish fursati yetdi. Hozir markazimiz tomonidan "Kitob marafoni" loyihasini boshlash rejalashtirilmoqda. Shu yo'l orqali jamiyatimizda kitobxonlar sonini aniqlash, qiziqish va talablarini o'rganib, bu borada tahliiliy ma'lumotlarga ega bo'lishni o'ylayapmiz.

Yoshlar orasida kitobxonlik kamaygani borasida bir mulohaza bor: bolalarda yoshlikdan kitobga mehr, kitob o'qishga ishtiyoq uyg'otish kerak. Afsuski, bugun bolalar uchun kitob yozadigan o'zbek yozuvchilari juda kam. Bolalar qiziqib o'qiydigan, turli yoshga doir rang-barang, sarguzashtlarga boy asarlar yo'q hisobi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar yoshiga qarab asarlar toifalangan, ularning sevimli yozuvchilari ham talaygina. Shunday ekan, biz bolalar adablarining safini kengaytirishimiz, ularni rag'batlantirib, yangi avlod asarlarini yaratishiga shart-sharoit hozirlashimiz shart. Bugun kutubxonalardagi kitoblarning ko'pi chet tillardan tarjima qilingani

yoki o'sha tilning o'zida nashr etilganini ko'rish mumkin. Farzandlarimiz ergashadigan, havas qiladigan qahramonlarning hech biri o'zimizniki emas, barchasi begona siymolar. Shuni inobatga olib, biz bolalar adabiyoti yo'nalishida qalam tebratadigan ijodkorlarni rag'batlantirish uchun turli xil ko'rik-tanlovlari tashkil etishni niyat qilganmiz.

– **Yoshlarimiz kitob o'qimayotgan bo'lsa, yana qanday vositalar orqali ularning ta'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishimiz mumkin?**

– Yoshlar butunlay kitob o'qimayapti, degan fikrlarga qo'shila olmayman. O'qiyotgan yoshlarimiz ham ko'p. Prezident tashabbusi bilan bunday kitobxon yoshlarga avtomashinalar sovg'a qilinyotgani, turli rag'batlar berilyotgani ortidan ham kitobga qiziqish, mutolaaqa mehr, kitobxonlik yana ortmoqda. Kitob o'qimaslik fojia bo'lsa, yuzta kitob o'qib, biron-bir xulosaga kelmaslik chinakam musibatdir. Bu – inson fikrlamayapti, degani. Shuning uchun bolalarga kitobxonlikni bolaligidan singdirib borish, bu borada ota-onalar farzandlariga o'rnak bo'lishi lozim. Imom G'azoliyning shunday fikri bor: "Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi... Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi".

Hozir kitobdan boshqa tarbiya vositalari ham mo'l. Masalan, kino, musiqa san'ati asarlari, bola yashaydigan muhit, oila, mahalla, u tahsil oladigan maktab – ularning barchasi tarbiyada katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda markaz tomonidan bolaga milliy, xalqona usulda tarbiya berishning aniq metodik asoslari ustida izlanish olib borilmoqda. Bu metodik asoslar qo'llanma holda chop etilib, har bir ota-ona, mahalla, bog'cha va maktablariga yetkazib beriladi.

"Biz bir bo'lsak – xalq, birlashsak – Vatanimiz" shiori ostida hududlarda turli loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, Kinematografiya agentligi bilan hamkorlikda "Kinokarvon" ijodiy-madaniy loyihasi mahalla va ta'lim muassasalariga kirib bormoqda. Yoshlar o'rtasida sevimli kino qahramonlari haqida insholar tanlovi o'tkazilmoqda. Hozirga kelib, Navoiy, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida loyiha qamrovi 43 ta tuman (shahar), 40 nafar "Ma'rifat" targ'ibotchilari, 25 300 nafar aholini qamrab oldi. Shuningdek, markaz tomonidan ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan animatsion roliklar, tarbiyaviy ahamiyatga ega vaynlari, qisqa metrajli filmlar yaratish ustida allaqachon ishlar boshlab yuborildi. Mana, kuni kecha muhtaram Prezidentimiz tomonidan Toshkentda o'zbek estradasi asoschisi, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochildi. Kinochilar saroyida kino san'atimiz tarixiga bag'ishlangan muzey hamda "Tirik tarix" loyihasi taqdimoti bo'lib o'tdi. Aytilganidek, san'at va madaniyatga qaratilayotgan e'tibor ham aslida yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashning muhim sharti.

– **Barcha tashkilot va ta'lim muassasalarida ma'naviyat va ma'rifat bo'limlari bor. Ularning faoliyati aksariyat holda qog'ozbozlik, hisob-bozilikdan iboratdek. Buning boisi sohada o'z vazifasini yetarli darajada bilmaydigan xodimlar faoliyat yuritishidami yoki talab shundaymi?**

– Har bir sohada ishga munosabat juda muhim. Ma'naviyat va ma'rifatga mas'ul inson bu mas'uliyatni yaxshi anglamasa, teran his qilmasa, bundan ortiq ko'rgilik yo'q. Markaz tomonidan ishchi guruh tuzilib, hududlarda o'rganish ishlari olib borilmoqda. Bu boradagi dastlabki

xulosalar ham hududlardagi ma'naviyat va ma'rifat bo'limlarining eng katta kamchiligi aynan ko'zbo'yamachilikdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Topshiriqlarni xo'jako'rsinga bajarish, hatto qog'ozbozlik va ko'chirmakashlikka ruju qo'yish holatlari ham uchramoqda. Albatta, bunaqa nojoiz holatlarning oldini olish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmog'ga.

Bugun turli yo'nalishlarda ma'naviy-ma'rifiy sohaga mas'ul bo'lgan 40 mingdan ortiq kishi bor. Buni bemaol katta bir armiya deyish mumkin. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazini faqatgina targ'ibot tadbirlarini amalga oshiradigan tashkilot emas, balki ana shu katta guruhni amaliy-metodik qo'llanmalar, uslubiy ishlanmalar bilan ta'minlab turuvchi tashkilotga ham aylantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari mos ravishda ushbu kengashning joylardagi bo'limlari rahbari hisoblanadi. Shundan ham bilish mumkinki, bugun tarbiya, ma'rifat masalasi muhim, e'tiborda, doimiy nazoratdadir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan alohida ishchi guruh tuzilib, joylardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning holati tizimli o'rganilib, tahliiliy-amaliy tavsiyalar berilmoqda. Ularni amaliy-metodik qo'llanmalar, uslubiy ishlanmalar bilan ta'minlashga harakat qilinmoqda.

Hozirda barcha hududlar bo'ylab o'rganish ishlari davom etmoqda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini baholash tizimi joriy etildi. Xususan, Qashqadaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyatlaridagi o'rganish natijalari bo'yicha viloyatlar hokimlari ishtirokida tanqidiy-tahliiliy yig'ilishlar o'tkazildi. Shu rinda ba'zi tumanlar hokimlari yilning bir choragi davomida biron mara ma'naviyat muammolariga e'tibor qaratmagani achinarlidir. Iqtisodiy muammolar yechim topishi mumkin, lekin odamlar ongidagi ma'naviy qashshoqlikning o'rmini to'ldirish qiyin bo'ladi.

– **Jadid ma'rifatparvarlari millat taraqqiyotini umummillat ma'naviyati, ma'rifati yuksalib, illatlardan xalos bo'lishi bilan bog'liq deb hisoblagan. Aytinch, o'z davrida jadid bobolarimizni tashvishga solgan illatlardan qaysi birlari hamon millatimiz girdanida yuk bo'lib yuribdi?**

– Ma'rifatparvar bobomiz Behbudiy shunday yozgan: "Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilar? Nikoh, xatna, bu ikki balo shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulub bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol, ya'ni o'turarg'a xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar va o'g'ul xatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm. Har bir benavo kishi bu mavridlarga 200 so'mdan 1000 so'mgacha sarf etar. Boy va zo'raki boylar esa besh ming, o'n minglab sarf etar".

Bugun ham isrofgarlik bilan o'tkazilayotgan to'y-hasham, o'tkinchi orzu-havaslari va dab-dabani jamiyatimizni kemirayotgan illatlar sirasiga kiritish mumkin. Aslida xalqimizga to'yxona emas, katta-katta kutubxonalar yarashadi.

Yana illatlarimiz sifatida ta'lim olishdan ko'zlangan maqsadlarimizni alohida ta'kidlamog'chiman. Haligacha ayrim yoshlarning ongida "Bu o'qishga kirsam, erta soqqaliroq kasb egasi bo'laman", "Obro'li ishda ishlayman" degan biryoqlama tushuncha mavjud. Aslida, ilm olishdan maqsad jadidlarimiz singari yurtning taraqqiyoti-ga hissa qo'shish, rivojiga xizmat qilish emasmi?

Xullas, bizni kemiruvchi illatlar talaygina. Xususan, odamlarimiz orasida yolg'onchilik, tarbiyada mas'uliyatsizlik, boqimandalik, milliy o'zligimizdan yiroqlashish, befarqlik, tarqoqlik

kabi millatimizga yarashmaydigan illatlar ham ko'zga tashlanadi. Mana, masalan, bugun internetda o'zgalarning fojiasini vosita qilib pul ishlash, layk to'plash, obunachilar sonini oshirish urfga kirib borayotgani ham achinarlidir.

– **Odatda ma'naviyat kattalarning shaxsiy namunasi, o'rnagi asosida yoshlarga singdiriladi. Bugun quruq gaplardan amaliy harakatlarga o'tish vaqti kelmadimik?**

– Albatta, tarbiya – avvalo amalda ko'rsatiladi, keyin anglanadi, so'ngra namoyon bo'ladi. Qusurlar ham vaqtlar o'tib ko'zga tashlanadi. Tarbiya millat kelajagi, xalq ertasi ekan, bu jarayonda hech kim tomoshabin bo'lmagligi, o'quvchiga dakki bergan o'qituvchini do'pposlamagligi, u tashkilot yaxshi ishlamayapti, bu rahbar safsata sotiyapti, deya "aqlmirzalik" qilavermasdan, birinchi galda o'zi vijdonan ishlashi kerak.

Tarbiyaviy ishlarimiz samara berishi uchun muhit kerak. Bu – zarjirdek bir-biriga ulanib ketadigan jarayon. Tarbiya ishida begona yo'q. Hammamiz bunga mas'ulmiz. Tarbiya ishida shoshmashoshlik, ura-urachilik, tezda natija kutish noto'g'ri. Bu shunday uzluksiz jarayonki, hech qachon to'xtamaydi. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, tarbiyada tanaffus bo'lmagligi kerak. Albatta, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bu jarayonda muvofiqlashtirib turuvchi tashkilot sifatida amaliy harakatlarni olib bormog'ga.

Kamchiksiz odam, har tomonlama mukammal insonni topish imkonsiz. Ayniqsa, O'ying dog'ini ham muhokama qiladigan virtual tanqidchilik kuchaygan bugungi kunlarda aniq bir zamonidoshimizni "milliy ma'naviyatimiz pasporti" sifatida taqdim etolmaymiz. Shu sababli, oddiy odamlarning yaxshi amallari, von-verimizda yashayotgan zamondoshlarimizning qaysidir ibrat bo'lgulik ishini o'rnak qilib ko'rsatish ko'proq natija beradi, deb o'ylayman. Deylik, yaqindagina jazo koloniyasidan ozod etilgan sobiq mahkumning o'z ko'chasida nihol ekishi, qaysidir qassobning o'zi o'qigan maktabdagi ititish tizimini homiylik asosida tuzatib bergani kabi holatlar targ'ib etilsa, odamlarga buyuk ajdodlarimizning shonli hayot yo'lida bag'ishlangan ilmiy ma'ruzalardan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi, deb o'ylayman.

– **Siz oilangizdagi ma'naviyat masalasiga qay yo'sinda yondashasiz, farzand tarbiyasiga-chi?**

– Oiladagi farzand tarbiyasi an'analar asosiga qurilib, zamon bilan bog'langani ma'qul. Bizning oilamizda ham bu borada an'alar shakllangan. Bunda otamning o'rni katta. U kishi farzandlarini ham qattiqqo'llik, ham ma'rifat, ham shaxsiy namuna asosida tarbiyalagan. Maoshining bir qismini kitob sotib olishga sarflardi. Faqat kitob olib berib, o'qi, demay o'zlari o'rnak bo'lib kelgan. Oilamizda haftada bir marta kitobxonlik kuni tashkil qilinardi. Uyimizda otam kutubxona ham tashkil qilgan.

Otamga bu fazilat bobo-momalarimizdan meros. Hozirda bu meros kaminaga ham o'tgan. Faqat zamonga, bolalarim qiziqishiga qarab, ularni turli xil usulda rag'batlantirib boraman. O'qigan kitoblari uchun ularni rag'batlantiraman. Agar kitob haqidagi xulosalarini o'zbek tilida chiroyli ifodalasa, rag'bat yana oshadi. Shu asar haqida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib taqdimot qilib bersa, yanayam kattaroq rag'batga loyiq bo'ladi. Kimdir bolani pulga o'rgatmaslik kerak, deydi. Lekin bolaga pul topishni, uni sarmoyaga aylantirish, ishlatish ko'nikmalarini ham yoshlikdan o'rgatib borgan ma'qul.

Oilaviy muzey, teatr, kutubxonalarga borib turamiz. Buni tarbiya haqida gapirmasdan bolalarim tarbiyalashning eng yaxshi usullaridan, deb hisoblayman.

– **Ma'naviyatni bolaga bog'chadan, maktabdan singdirishimiz kerak, deb ko'p gapiramiz. Botinimizda ma'naviyatni uyg'otish, shaxs bo'lib shakllanishimiz, o'zlikni qonimizga singdirish uchun nimalar qilishimiz kerak, deb hisoblaysiz?**

– Botinimizda, qonimizda ma'rifat, ma'naviyat yuksak darajada bor. Bunga o'tmishimizdan ko'p misollar keltirib o'tish mumkin. Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Jaloliddin Manguberdi, Nodirabegim, Uvaysiyilarni allaqachon jahon tan olgan. Ajdodlarimiz ilm-ma'naviyat yo'lidan yurib, dunyo tarixida munosib o'zga narsa emas. Bugungi tahlikali zamonda qonimizdagi ajdodlarimizdan meros bo'lgan jasorat, mardlik, vatanparvarlik, ilmga intilish xislatlarini, ma'naviy fazilatlarni tezroq uyg'otish har qachongidan ham muhim va shart.



BURUNGI VA BUGUNGI JURNALISTIKA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to'g'risida"gi tarixiy qarori imzolanganiga shu yil 24-mayda 6 yil to'ladi. Buyuk jadid bobomiz Abdulla Qodiriy ta'kidlaganiday, "moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir". Biz ham so'zni qaror imzolanishining tarixiy omillari, shu vaqtda milliy jurnalistikamizning yetilish turgan, kechiktirib bo'lmas muammolari, yillar davomida hosil bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirishda "yangi qon" bo'lib xizmat qiladigan universitetning tayanch ustunlari, burungi va bugungi talabalarining jurnalistikaga kirib kelish kayfiyati haqidagi mulohazalardan boshlashni ma'qul topdik.

Boshidan o'tgan tabib, degan xalq naqliga ko'ra yaqin o'tmishga shaxsiy tajribalarim prizmasidan nazar tashladim. Unda nimalar aks etadi? Respublikamiz tarixida tub burilish yasalgan 1991-yilda ToshDuning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdim. O'shanda mustaqillikning ilk kunlari bo'lib, "qayta qurish" davrining alg'ov-dalg'ovlari hali bosilmagan zamonlar edi. Ziddiyatli davrda matbuotga juda ko'p erkinliklar berilgandi. Buni hamma har xil qabul qildi: mitingbozlik bo'ldi, so'z erkinligi ba'zida boshboshdoqlik(anarxiya)ni keltirib chiqardi.

Ana shunday murakkab sharoitda o'qishga kirgan biz yoshlarning oldida qator savollar turardi. Mustabid Sovet davrida matbuot qay ahvolga kelib qoldi? Jadidlarning matbuoti qanday bo'lgan edi? Mustaqillik sharoitida qanday matbuot yaratishimiz kerak?..

Yuqoridagi savollarga uzil-kesil javob topilmagan matbuotda konservativizm boshlandi. OAV faoliyatida davlat aralashuvi kuchaydi. 90-yillarning o'rtalariga kelib juda keskin senzura g'uvoh bo'ldik. Taqiqlangan mavzular... "Qora ro'yxat"ga tushgan odamlar...

O'zbekiston 2000-yillarda dunyoda internet ko'rsatkichi bo'yicha past davlatlar qatorida edi. O'sha yillari bizning avlod vakillarini "Tanlagan kasbimdan qanday baraka topaman?", "Qanday qilib o'z ishimni vijdonan bajaraman?" degan savollar iskanjaga olgandi. Eng og'riqli, ayni vaqtda bizni harakatga undovchi savol esa bitta edi: o'zbek mediasida qanday bo'lishi kerak?



2016-yilda O'zbekiston bo'ylab boshlangan keng islohotlar OAVni ham chetlab o'tmadi. O'zbekiston jurnalistikasi tarixida yangi davr boshlandi, sun'iy to'siqlar olib tashlandi. Ana shu paytda yuqoridagi savollar ritorik darajaga chiqdi. Ularni media olam vakillari, jurnalistlar, muharrirlar hal qila olmasdi. Zamon talablari, dunyodagi tanazzulli vaziyatlardan kelib chiqib Prezidentning o'zi to'g'ri vazifa qo'ydi.

2017-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu masalaga uzil-kesil to'xtildi: "Jamiyatimiz hayotida demokratik printsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi. Bu borada chinakam professional, zamonaviy jurnalistikani shakllantirish, xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini, axborot va tahliliy internet saytlarini milliyaviy qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish, buning uchun alohida davlat fondini tuzish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mulk shakli, yo'nalishi, axborot uzatish vositalariga ko'ra turlichadir. O'z-o'zidan ravshanki, ularning barchasiga yuqori malakali kadrlar kerak. Afsuski, bunday keng ko'lamlil vazifani talab darajasida hal etadigan tayanch oliy o'quv yurti mamlakatimizda mavjud emas. Shu munosabat bilan Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya vositalari universitetini tashkil etish zarur, deb hisoblayman".

Darhaqiqat, Davlat Rahbari ta'kidlagan kadrlarni tayyorlash uchun O'zbekistonga yirik o'quv yurti, aynan, universitet kerak edi. Bu Prezidentimizning murojaatida yaqqol jarangladi.

Shu o'rinda esa yana boshqa savollar vujudga kela boshladi: mustabid davr senzurasini, qayta qurish anarxiyasini, istiqlolning ilk yillarida berilgan so'z erkinligini noto'g'ri qabul qilish va uning salbiy oqibatlaridan so'ng mustaqillik yillarida yana senzura qaytishni ko'rgan avlod Yangi O'zbekiston uchun qanday qilib tizim yaratamiz?

2017-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga murojaati aynan ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Yangi O'zbekiston islohotlarini yoritib beradigan, yillar davomida to'planib qolgan sirlarni ochib, dunyoda bo'layotgan jarayonlarni tahlil qiladigan, xohlagan amaldor bilan xohlagan mavzuda suhbat quradigan davr kelgan edi.

Prezidentning davlat tashkilotlari xalqqa xizmat qilishi kerak, degan g'oyalari, Xalq qabulxonalarining tashkil etilishi, Prezident portalining ochilishi O'zbekistonda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratdi. Jarayon silsilasida xalqqa mana shu islohotlarni yoritib beradigan mediaga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi. Shunday vaziyatda O'zbekistonda blogosfera rivojlandi. Kun.uz, Daryo.uz, Qalampir.uz kabi o'nlab veb-saytlar, MTRK tarkibidagi va Sevimli, Zo'rtv, Renessans, Mening yurtim, Milliy TV telekanallari, yurtimiz bo'ylab 30 dan

ortiq davlat va nodavlat radiokanallar, o'z nuqtai nazariga ega millionlab odamlar o'qiydigan medialar paydo bo'ldi. Ularga kadr kerak edi. Bu kadrlarni qayerdan olamiz?! Afsuski, yiliga 50-60 talabani qabul qiladigan jurnalistika fakultetlari bu missiyani bajarolmasdi.

Shuning uchun ham zamonaviy universitetni tashkil etish g'oyasi davr talabi bo'ldi. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etilayotganda Toshkentning qoq markazidan zamonaviy bino berildi. Davlat va homiylar mablag' ajratdi. Zamonaviy kampuslar barpo etildi.

Bosma OAV va noshirlik ishi, Xalqaro va audio jurnalistika, Internet jurnalistika va mediamenagement, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti tashkil etildi. Boshida 119 nafar talaba qabul qilingan bo'lsa, bugun ularning soni 4000 taga yetdi.

Biz o'qiganimizda diplomga bor yo'g'i bitta ixtisoslik yozilar edi. Bugun esa 18 ta yo'nalish yoziladi. Universitet tor doirada qolib ketmasligi uchun alohida Xalqaro munosabatlar yo'nalishi, Sotsiologiya, Psixologiya, Iqtisodiy jurnalistika, Sayohat jurnalistikasi, San'at jurnalistikasi, Internet jurnalistikasi, Sport jurnalistikasi, Harbiy jurnalistika kabi yigirmaga yaqin yo'nalishlarni joriy qildik.

O'zbekistonda jurnalistika ham kasb, ham ilmdir. Bugungi kunda O'zbekistonda O'zJOKU monopoliya emas. Bizdan tashqari yana 13 ta oliy ta'lim muassasalarida (O'zMU, Jahon tillari universiteti, Webster, Central Asia va boshqa) jurnalistlar tayyorlanmoqda.

Davlat va jamiyatdagi bu o'zgarishlar, OAV, xususan, matbuotdagi yangilanish jadidlar davri matbuotini yodga soldi. Jadidlar matbuoti O'zbekiston tarixida tun zulmatini yoritgan hilol bo'lgandi. 1906-yil 27-iyun kuni "Taraqqiy" tashkil etilgan, bundan tashqari "Oyina", "Al-Izoh" jurnallari, "Xurshid", "Osiyo" kabi gazetalari chiqdi. Lekin ularning umri qisqa ekan. Jadidlar millatimiz, o'zligimiz, ta'lim qanday bo'lishi kerakligi haqida jon kuydirardi. Ular 1938-yilda qatag'onga uchraganda "o'yniq qorong'i kunlari" boshlandi.

Bugun bo'layotgan o'zgarishlarda jadidlarimiz matbuotining uyg'onayotganini ko'rayman. Bugun O'zbekistonda 2 257 dan ortiq media bahslashmoqda, siyosatchilarning gapini muhokama qilmoqda, hech qanday cheklavlarga yo'q.

G'ururlanadigan jihatimiz – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Turkiy Davlatlar Tashkiloti Turk Universitetlari Ittifoqiga juda qisqa muddatda a'zo bo'ldi. Bugungi kunda O'zJOKU bittirgan talabalar O'zbekistonning eng oldi medialarida samarali faoliyatini boshladi. 6 nafar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, 4 nafar Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi, 3 nafar Alisher Navoiy nomli davlat stipendiyasi sovrindori yetishib chiqdi. 12 nafar qizimiz Zulfiya nomidagi, 4 nafar yigitimiz "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Bugun universitetda atoqli milliy pedagog-mutaxassislar bilan bir qatorda xorijdan Das Kundu Nivedita, Alptekin Musa Yavuz, Antonov-Ovseyenko Anton Antonovich, Peter Shockey, Raviprakash Govindora Dani, Arria Xouldin kelib talabalarimizga dars bermoqda.

Turkiya va Germaniya bilan hamkorlikda teleradiostudiya, fotolaboratoriya, Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda Talabalar press-klubi tashkil etildi, kovorking markazi ochildi. Shuningdek, barcha qulaylikka ega talabalar turar joyi barpo etildi. Bunday muhitni yaratishdan maqsad hozirgi so'z va fikr erkinligi, ochiqlik va oshkorlik davrida milliy mediamiz uchun iqtidorli, sohasini puxta egallagan, professional kadrlarni tayyorlashdir. Hozir Osiyoning vazifamiz yaqin 10 yilda Markaziy Osiyodagi yirik media universitetga aylinish.

Bir paytlar O'zMUning 16 ta fakulteti bo'lar edi. O'shanda 3 ta guruh birlashtirilib dars o'tilardi. Biz o'qigan paytda kafedralar almisoqdan qolgan, eski jihozlar bilan to'ldirilgandi. Bugun O'zJOKUning hamma qavatlarini hisoblaganda 10 ming kvadrat metri tashkil etib, mahobatli 25 qavatli osmono'par binoga aylandi.

Universitetda bugun 9 ta tilda dars beriladi. Yaqin orada qardosh bo'lgan qo'shni tillarda ham fakultetlar tashkil qoqchimiz. Orzimiz O'zbekistonda o'nlab – koreys, arab, turk, ispan tilida gaplasha oladigan yuqori malakali, saviyali jurnalist tayyorlashdir. Shunda bizning jadid bolalarimizning istiqbol, so'z erkinligi va renessans to'g'risidagi g'oyalari amalga oshgay.


Sherzodxon QUDRATXO'JA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, professor

O'TMISHDAN SADO

"...Men shaharlik hunarmandning o'g'liman – otam izidan bormoqchi edim. Lekin xudo menga aql bergan va madrasada mening qobiliyatim ko'zga tashlandi – ruhoniylik xizmatiga tayyorlana boshladim. Ammo bir hodisa taqdirimni boshqa yo'lga solib yubordi. 13 yashar bolalik vaqtim qishloqda tog'amning uyida mehmon bo'lib turardim. Bir kuni shu joyga soliq yig'uvchilar keldi. Ular kelishi bilan shunday hodisalar boshlandiki, ularni so'zlab bermoq mumkin emas. Shu vaqtda men bu dahshatli soliq yig'uvni o'zgartirish uchun qanday bo'lsa ham "katta amaldor" bo'lishga qaror qildim".

"Turkестanskiy kuryer" gazetasi 1911-yilgi sonlaridan birida bosilgan maqoladan olingan ushbu iqtibos bir qarashda mustamlakachi tarafning matbuotida "xonlikni beshafqat, oddiy xalqni ezishga asoslangan tuzum sifatida ko'rsatib, o'zlarini yurtga adolat olib kelganlar"dek taassurot uyg'otayotganga o'xshaydi. Agar bunday gapni xonlardan alamzada biror kishi aytssa tushunish mumkindir, ammo ushbu so'zlarni xonlikning bosh vaziri aytmoqda. Xondan hayiqmay otasi xonlik qilgan davrni keskin tanqid qilmoqda. Buning uchun inson chindan ham dovyurak bo'lmog'i kerak.

Ha, Xiva xonligidagi soliq yig'uv tizimini nafaqat tanqid qilgan, balki uni o'zgartirishga ahd etgan inson Islomxo'ja edi. Qahramonimiz 13 yashar o'smirlik paytida (1886-yil) chor Rossiyasiga vassal xonlik taxtida Muhammad Rahimxon soniy muqim o'tirar, u qaynotasi bo'lmish Ibrohimxo'jani bosh vazirlikka tayinlagan, asrlar mobaynida davom etib kelayotgan iqtisodiy ustqurmalarini isloh qilish uning xayoliga ham kelmas, shu bois oddiy xalq zulmi iskanjasi qolgan edi.



nazorat ostida ushlashdan iborat bo'lib, hali yigirma yoshga kirmagan yigit bir yildayoq buning uddasidan chiqadi va qisqa muddatda haqiqiy elboshiga aylanadi. Otasi to'satdan vafot etgach, Muhammad Rahimxon soniy Islomxo'jani hech ikkilanmay bosh vazirlikka tayinlaydi va oldingi bosh vazirlardan farqli tarzda unga "Vaziri akbar" unvonini beradi.

Yoshligidayoq ko'ngliga soliq tizimida adolat o'rnatishni qattiq tuggan Islomxo'ja orzularini bir qadar amalga oshirishga erishadi, ammo Muhammad Rahimxon soniy davrida buni oxirigacha yetkazolmaydi. Bunga taxtda qirg to'qqiz yil o'tirgan, saltanatni eski tamoyillar asosida boshqarishning hadisini olgan xon izn bermaydi.

Xon vafotidan so'ng taxtga Isfandiyo' o'tirishi bilan Islomxo'ja jiddiy islohotlarga kirishadi. Isfandiyo'ning kuyovi edi. Tajribasiz xonning qaynotasiga qarshi bormagani vaziri akbarning boshlamalari-da qo'l keladi. Islomxo'ja islohotni, avvalo, xonlikdagi yerlarni to'liq xatovdan o'tkazishdan boshlaydi. Natijada saroyda in qurib olgan amaldorlarning soliqqa tortilmagan minglab tanob yerlari aniqlanadi, ko'pchiligining mol-mulki musodara qilinib, o'zlar zindonga tashlanadi. Ana shu minglab tanob yerlarning soliqqa tortilishi tufayli oddiy xalq yelkasidagi soliq yuki keskin kamayadi. Bu islohotlar xalq orasida Islomxo'janing obro'sini bag'oyat oshiradi va o'z navbatida, pana-pastqamdagi dushmanlari qo'lga qurol ham tutqazadi.

Yurtimizda jadidlik tarixini tadqiq qilgan olimlar Islomxo'jani haqli ravishda yurtga yangilanish epkinlarini olib kirgan jadidlar qatoriga qo'shadilar (ayrim olimlar uni "jadidlarning so'l qanoti a'zosi" sifatida talqin qilishadi).

Davlatda eng nufuzli – ikkinchi darajali lavozim egasining jadidlik harakatiga qo'shilishi, ularga moddiy va ma'naviy rahnomalik qilishini o'sha davr me'yorlari-

ga solishtirsak, tasavvur qilishimiz qiyin. Ammo bu tarixiy voqea, tarixiy haqiqat!

Islomxo'ja besh marta chor Rossiyasi poytaxti Peterburgga borgan, Nikolay ikkinchi bilan bir necha marta uchrashgan.

Rossiya markaziy davlat arxivining 400-fondidagi 175-"ish"ning 50-54-sahifalaridagi ma'lumotga ko'ra, Islomxo'ja Peterburgdagi "Musulmonlar xayriya jamg'armasi"ga borib, u yerda Eron va Turkiya davlatlari elchilari bilan uchrashgan, kechqurun Marinin teatrda ular sharafiga ziyofat ham bergan. Tabiiyki, Xiva xoni bosh vazirining musulmon davlatlari elchilari bilan til topishgani chor ma'murlariga yoqmagani. Xonlik bosib olingan vaqtda tuzilgan Gandimiyon shartnomasida xonlikning chet ellar bilan mustaqil aloqasi taqiqlangan, bu ish chor hukumati tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan edi.

Turkiston general-gubernatorining 1913-yil 4-yanvarda imperiya harbiy vaziri Suxomlinovga yo'llagan maxfiy xatida shunday satriklar bor: "Xonlikda 1910-yilgacha hukm surgan osoyishtalikni saqlab turish, xalq g'alayonlarining oldini olish uchun Islomxo'ja faoliyatini jilovlash chora-tadbirlarini ko'rish lozimiga o'xshaydi". O'sha xatda general-gubernator Islomxo'jani chet elga surgun qilishga ruxsat so'ragan, ammo harbiy vazir bu taklifni ma'qullamagan.

Amudaryo bo'limi tomonidan 1912-yil 12-avgustda Toshkentga yo'llangan axborotda gap bosh vazir uyidagi ahvol haqida boradi: "Vaziri akbar Islomxo'ja farzandlarining muallimi, jadid Abdurashitovning faoliyati alohida e'tiborga loyiq. Afsuski, Abdurashitov o'qituvchilikdan tashqari Xiva xonligi ichki ishlariga ham aralashadi. U Islomxo'janing uyida yashab, shu yerda yashirin yig'ilishlar o'tkazib turadi. Bu yig'ilishlarda Abdurashitov rahbar va maslahatchi bo'ladi.

Islomxo'ja ishtirok etadigan shunday yig'ilishga to'plangan xivaliklar ongiga xonlikni Rossiya qaramog'idan ozod qilish va taraqqiy etirish g'oyalari singdirilmoqda".

Bu kabi qo'plab chaquvlar beiz ketmaydi. Natijada "Amudaryo bo'limi 1913-yil yozida Abdurashitov va boshqa jadidlarni Xivadan majburan chiqarib yuboradi" ("Turkестanskiy kuryer" gazetasi 1913-yil 21-avgust kungi sonida bu haqda xabar chop qilingan).

Xorazmdagi jadidlik harakati faolaridan biri, "Yosh xivaliklar" harakati yetakchisi Polvonniyoz hoji Yusupov o'zining xotiralari kitobida Isfandiyo' boshligi Xiva amaldorlarining 1912-yil yozida Peterburgga va Moskvaga qilgan safarlari, so'ng Qora dengiz bo'yida dam olishlarini qalamga olarkan, bir holatni afsus bilan qayd qilgan. Muallifning yozishicha, dengiz bo'yida dam olish vaqtida xonning mahramlari har kuni uning yotog'iga shu yerda sang'ib yurgan turli millat vakillari bo'lmish yengiltak ayollarni keltirib turishgan. Bu ham qaynota, ham bosh vazir sifatida Islomxo'jaga ma'qul kelgan va u kuyoviga ko'pchilik oldida dakki bergan. Jahli chiqqan Isfandiyo' Islomxo'jani shu yerda majburan qoldirgan. "Islomxo'ja barchamiz bilan yig'lab xayrlashdi. U endi yurtga qayta qadam bosa olmayman, degan qayg'uda edi", deb yozadi muallif.

Islomxo'ja kuyovi – xon buyrug'iga itoat qilmay bir oydan so'ng Xivaga qaytib ketladi. Oradan roppa-rosa bir yil o'tgach, 1913-yil 9-avgustda kechqurun iftorlik qilish uchun uyiga qaytayotgan vaqtida xon tomonidan yollangan qotillar uni vahshiy-larcha o'ldirdi.

Islomxo'ja tom ma'noda bunyodkor amaldor edi. Uning sa'y-harakatlari bilan Xivada zamonaviy maktab, shifoxona, telegraf qurilgan. U bunyod etirgan shifoxona bir asrdan buyon elga xizmat

qilmoqda. U Moskvadan keltirgan to'rta yig'ima temir ko'priklar yirik suv havzalari ustiga qurilgan, ikkitasi haliyam ishlab turibdi.

Islomxo'ja boshqa hududlar bilan savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish uchun "Chorjo'y – Urganch" temir yo'li loyihasi tayyorlatadi, uni qurish uchun homiylar topadi. Bevaqt ro'y bergan qotillik boshlanayotgan ishga raxna soladi. 1949-1952-yillarda vohaga tortilgan temir yo'l Islomxo'ja tayyorlatgan loyihaning ayni o'zidir.

U rus, arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Imperiya shaharlarida chop qilinadigan vaqtili nashrlar bilan muntazam tanishib borgan. Jadidlik harakatining otasi Ismoil G'asprali xonlikka kelganida, u bilan uzoq suhbatlar qurgan. Keyinchalik Yosh xivaliklar harakatini tuzgan yoshlarning aksariyati Islomxo'ja tavsiyasi hamda homiyligidagi Turkiya va boshqa chet davlatlarda tahsil olgan.

Agar o'sha muhdish qotillik ro'y bermaganida Islomxo'ja, shubhasiz, Xorazm Xalq Respublikasi yetakchilaridan biri sifatida yurt mustaqilligi uchun jonini tikar va... sho'ro qatag'oni qurboniga aylanardi.

Keyingi vaqtlarda yurtimizda Islomxo'janing hayoti va faoliyatiga qiziqish kuchaydi. Bir qator olimlar uning o'z davrida amalga oshirgan xayriy ishlarini atroflicha o'rganib, xalqimizga ma'lum qilishmoqda. Ayniqsa, bundan bir necha yil burun kinoijodkorlarimiz tomonidan suratga olingan "Islomxo'ja" deb nomlangan keng ko'lamli badiiy-publististik hujjatli film tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otdi. O'z davrida el-yurt ravnaqi yo'lida jonini ham ayamagan bu fidoyi insonning ezgu ishlari bugun katta hurmat va ehtirom bilan tilga olinmoqda..

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi




SARCHASHMA

SOHIBQIRON HAQIDA ENG BIRINCHI KITOB

Sohibqiron Amir Temur hayotlik chog'ida yozilgan kitoblar ko'p emas. Rasmiy tarixda ular ikkita hisoblanadi: birinchisi – G'iyosuddin Ali qalamiga mansub "Hindiston yurishi kundaligi", ikkinchisi – Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari. Lekin birinchisiga qaraganda ikkinchisi o'quvchilarga avvalroq va kengroq ma'lum bo'lgan.

"Hindiston yurishi kundaligi" haqida birinchi marta rus sharqshunos olimi, akademik V.V.Bartold o'zining 1902-yilda Turkistonga qilgan ilmiy safari hisobotida xabar beradi. 1915-yilda L.A.Zimin mazkur asarning tanqidiy matnini nashr ettirdi, unga V.V.Bartold muharrirlik qildi va "Muharrir so'zboshisi" nomli maqola bag'ishladi. 1958-yilda asar sharqshunos olim A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima etilib, bosib chiqarildi.



Zahmatkash olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ra'no Qobulova G'iyosuddin Ali qalamiga mansub "Hindiston yurishi kundaligi" asarining o'zbek tiliga tarjimasini ustida uzoq yillar mehnat qilib, sidqidildan ter to'kdi. Bugungi kunda ushbu nodir asar o'zbek xalqining mulkiga aylanmoqda. Bu, albatta, juda quvonchli hodisadir.

Sharq mualliflari tabiatan kamtarin bo'lishgan, asar yozganida o'zlari haqida mumkin qadar yozmaslik, eslamaslik, zoti xoslarini zinhor aralashmaslik, xokislik, iloji boricha yiroqroqdan turib kuzatish yo'lidan boradilar. Natijada ko'pincha ularning tarjimai holi bugungi kun o'quvchisi uchun mavhum bo'lib qoladi. Bu holni o'sha davrlarda yashagan barcha mualliflarda, xususan, biz qiziqayotgan Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, G'iyosuddin Ali, Fasih Xavofiy va boshqa muarrixlar misolida ko'ramiz. Bu hol yevropalik tadqiqotchilarning ba'zan noto'g'ri xulosalar chiqarishiga olib keladi.

Amir Temurning 24 yoshgacha bo'lgan davri haqida hech qanday tarixiy asar yo'q, ma'lumotlar ham kam. V.V.Bartoldning fikricha, Temurbek o'zining yoshligiga bag'ishlangan kitoblarni o'qib, barchasi afsona bo'lib ketibdi, bunga kim ishonadi, deya ularni yoqib yuborishni buyurgan emish. Biroq bu fakt qayerdan olingani va qayerda yuz bergani bizga noma'lum.

Darhaqiqat, rasmiy tarixda Amir Temur tarixi 1360-yildan boshlanadi. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"larida shu holni ko'rish mumkin: Temurbekning yoshlik, bolalik yillari haqida hech narsa yozilmagan. Lekin Sharafuddin Ali Yazdiy asarida bu haqda ko'p emas-ku, ba'zi lavhalar bor. Hatto, muarrix Fasih Xavofiy 1441-1442-yillarda yozib tugallangan, Turon-u Xurosonning yuz ellik yillik tarixi yilma-yil bayon qilingan nodir xronikal asarida ham (xuddi o'zgalari bilan kelishib olganday), Amir Temurning bolalik, o'smirlilik yillari haqida, uning 1336-yilda tug'ilgani borasida ma'lumot keltiradi, ammo u ham Sohibqironning dastlabki yigirma to'rt yillik hayoti haqida lom-mim demaydi. Ilk marta faqat mo'g'ul xoni Tug'luq Temurxonning Movarounnahr-ga bostirib kelishi, Kesh shahrining boshqaruvi ota-bobolarining joyi deb Amir Temurga topshirilishi haqida yozib o'tadi. Bu 1360-yilda yuz bergan edi...

Yuqorida aytganimizdek, kitoblarga ishonchi yo'qolgan Amir Temur, umuman, saltanat, o'zining faoliyati haqida biron kitob yozdirishni mutlaqo istamagan ko'rinadi. Saltanat taxtiga o'tirganidan so'ng yigirma sakkiz yil mobaynida bu haqda so'z bo'lma-

di, bironita kitob yozilgani ma'lum emas. Chamasi, nufuzli a'yonlardan kimdir, balki piri murshid Mir Sayyid Baraka, deb taxmin qilamiz, nihoyat Amir Temurni kitob yozdirishga undagan bo'lsalar ehtimol, chunki tegishli gapni Sohibqironga faqat tegishli odamlargina ayta olishi mumkin edi, hamma emas.

Hindistonga yurish arafalarida saltanat tarixi haqida kitob yozish, uni kim yozishi, nomzod haqida izlanishlar boshlanib ketdi. Ko'p nomzodlar bo'lganiga shubha yo'q, lekin Sohibqironning nazari Yazd shahrida yashaydigan tarixchi G'iyosuddin Aliga tushdi. Nomzodning salohiyati haqida fikrga ega bo'lish uchun uning risolalari so'raldi. Shuning uchun Yazd shahriga kelgan "...oliy-hazrat yaqinlari va sodiqiyat chokarlaridan birining tashrifiga musharraf bo'lgan vaqtda, mazkur satrlarni bitguvchi (ya'ni, G'iyosuddin Ali) biri arab, yana biri fors tilida yozilgan ikki risolasini..." ("Hindiston yurishi kundaligi") ularga taqdim etdi. Oliy dargohda risolalar o'qib chiqildi... Muarrixning so'z qobiliyatiga ega, nuktdan ekaniga ishonch hosil qilindi. Shundan keyingina uni saroyga chorladilar..."

Aslida Amir Temur kitob va uning ta'lif etilishiga juda katta ahamiyat bilan qarardi, chunki o'zi ham mashhur "Tuzuklar"ni insho etgan edi, kitobning qadriga yetardi. Shuning uchun biror muarrixga kitob yozishni topshirar ekan, unga juda jo'yali maslahatlar berardi. Sohibqironning kitob haqidagi fikrlari ulug' donishmand faylasuflarning qarashlarini eslatardi. Bu haqda "Zafarnoma" asarini bitgan Nizomiddin Shomiy bag'oyat aniq bayon qilgan. Amir Temur va Nizomiddin Shomiyning birinchi uchrashuvi 1393-yilda Bag'dodda yuz bergan. Ular oradan sakkiz yil o'tib, 1401-yil Xalab shahrida ikkinchi marta ko'rishdilar. Shu o'rinda Shomiyning asaridan ushbu hodisaga bag'ishlangan parchani keltirmasak, Sohibqironning qarashlari to'liq aks etmay qolishi mumkin.


O'sha uchrashuv haqida Nizomiddin Shomiy shunday yozadi: "...tarbiyat va bandaparvarlik yuzasidan oliy ishorat sodir bo'ldikim, garchi u zot qiling ishlarining bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini Onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, (saroyda turk, fors, arab munshiyilari, kotib-lari kundalik voqealarni muntazam yozib borardilar – M.A.) ammo ular hali munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan ekan; bu banda (Nizomiddin) ularni yig'ib, ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bo'lgaymen, lekin shu shart bilan, takalluf-u bezak berish, lof urish ziyinatidan o'zimni tiygaymen; asar uslub-i, so'z oroyishi-yu iboratorlik san'atidan sof va xoli bo'lg'ay. "Yana Sohibqiron menga: "Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtda yo'qolib ketadi, agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nisini fahmlab qolsa qolar, ammo olgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan o'zib. (Ta'kid biznik – M.A.) Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi...", dedilar.



Men banda yer o'pib arz sharafiga shunday yetkazdim: "...Olimlar maqbul so'z haqida shunday deganlar: "Yaxshi va ravon so'z ul-dirkim, avom xalq uning ma'nisini anglayag, xos kishilar esa unga ayb qo'ymagay!" Amir Sohibqiron hazrat: "Men ana shundoq so'zni xohlaymen!" dedi..." (Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma". T., 1996. 22-23-betlar).

Sohibqironning kitob yozishdagi talabi shundoq edi.

Mazkur voqealardan bor-yo'g'i uch yil oldin Sohibqiron Yazddan chaqirilgan muarrix G'iyosuddin Aliga ham shunday maslahat beradi. G'iyosuddin Alining o'zi asar de-bochasi bo'lgan voqeani shunday bayon qiladi: "...Mazkur satrlarni bitguvchi (u kamtarlikdan "men" demaydi, uchinchi shaxs nomidan so'z yuritadi – M.A.), biri arab, yana biri fors tilida yozilgan ikki risolasini olib, o'sha muboraknazar qarshisiga keldi va oliy taxt po'ymasiga ularni qo'ydi... [Shundan so'ng]



hukm bo'ldiki, [risolalar muallifi] tarix uchun hazrati jahonkushoy ishtirokida sodir bo'lgan harblardan ayrimlarini forsiy debochada bayon etsin va avvalo alohida bo'limda hazrat hayotining ibtidosida unga karomat qilingan g'alabalarning qisqacha bayonini bitsin. So'ng esa Hinduston g'azavoti ro'znomasiga kirishib, sertakalluflikdan yiroq va idrok etmoqqa oson iboralar ila aytilgan voqeaga oid mufassal jangnomani (ta'kid biznik – M.A.) sharh etsin. Garchi [muallif] aksar vaqt diniy ilmlar [dengiz]ga g'arq bo'lib, kitobiyat inshosiga kam havas qo'ygani bo'lsa-da, ammo oliy ammi bajarish yo'lida bu manzilni bosib o'tmoqqa shuru' qildi. Shaksiz, xotir nosozligi-yu dil parishonligini keltirib chiqarmoqqa loyiq bu mehnat xoqon hazratlarining charog'on dillaridan yog'ilgan nurining unga bandalik ishtiyoqida taralgan bir aks nuridir, xolos..." (G'iyosuddin Ali. "Hindiston yurishi kundaligi". Debocha.)

Amir Temur sichqon yilida tavallud topgan edi, tarixchilarning yozishicha, bu yilda tug'ilgan insonlar tabiatan hamma narsaga sinchkovlik bilan qarar, saltanat ishlarida ham, hayotda ham mayda-chuyda narsalargacha e'tibordan qochimas ekan. Uning saltanatida o'ljaga tushgan g'animatlar, xazinaga keladigan boylik yo tilla buyumlar, anjom-aslahalar, sovg'a-salomlar dafarga tushirililar va Sohibqironga taqdim etilardi. Hukmdorning o'zi barchasini bir-bir nazardan o'tkazardi. Ba'zan bunday daftarlarni ko'rib chiqish ikki-uch kungacha davom etganini aytadilar.

Kitob yozdirish esa katta hodisa hisoblanardi. Sohibqiron, ayniqsa, bu ishga befarq emasdi. U muallif bilan bo'lajak kitobda tilga olinadigan voqealar, so'zlar, joylar, janglar haqida fikrlashar ekan, hamisha voqealarni "sodda va tushunarli tilda" yozish lozimligini uqtirar edi. Hatto, kamina Sohibqiron tomonidan o'zining zafarli yurishlari tarixini yozish uchun G'iyosuddin Ali nomiga farmoni oliy chiqarilgani haqida ham eshitganman, ammo hozircha bunday faktga ko'zim tushmadi. "Zafarnoma" nomini ham Nizomiddin Shomiyga Sohibqironning o'zlari tavsiya qilgan ekan.

Akademik V.V.Bartold o'z hisobotida va keyinchalik 1915-yilda yozgan "Muharrir so'zboshisi" maqolasida "Hindiston yurishi kundaligi" Amir Temurning bergina yurishi tafsilotlari bayon qilingan yagona asar ekanini ta'kidlab, bu asar Amir Temur saltanatining mukammal tarixini yaratishga bel bog'lagan Nizomiddin Shomiyga shubhasiz manba bo'lib xizmat qilgan, deb uqtiradi. Bartold davom etadi: "Вместе с другими подобными трудами труд нашего автора (т.е. Гияс ад-дина Али) несомненно был источником составителя полной истории Тимура, Низам ад-дина Шами, труд которого был переделан и дополнен в царствование Шахруха Шереф ад-дином Езди".

Biroq ushbu fikr kishida bir necha e'tirozlar tug'diradi. Birinchidan, "другие подобные труды" deyilganda saroy munshiyilari muntazam yozib borgan voqealar nazarda tutilmoqda. Afsuski, bu manbalar asl holi-

da bizgacha yetib kelmagan. Nizomiddin Shomiy ta'biri bilan aytganda, Sohibqironning "...hozirgi kungacha bo'lgan tarixini Onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo hali munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan" voqealar tasviri har uchala muallifga ham o'z asarlarini yozishda material sifatida xizmat qilgani aniq. Mavzu yagona bo'lgani bois ayrim takrorlar yuz berishi tabiiy hol.

Ikkinchidan, Nizomiddin Shomiy o'z asarini yozishda G'iyosuddin Alining asaridan manba sifatida foydalanganida, buni, albatta, qayd etishi lozim edi. Uchinchidan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"sining qayta ishlangan (?) ("перделан"), to'dirilgan (?) ("дополнен") nusxasi emas! Uchala kitobning har biri asl, original asarlardir. Ularning barchasi turli yillarda, o'zgacha uslub va yondashuvlar asosida bitilgan mustaqil jangnomalardir.

To'rtinchidan, yana "Hindiston yurishi kundaligi"ning Nizomiddin Shomiyga manba sifatida xizmat qilgani haqida to'xtalamiz. Amir Temur 1398-yilda G'iyosuddin Alini saroyiga taklif qilib, uni Hindiston safariga birga olib ketadi. Chunki u kitob yozish uchun muallif voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rish, ularning tafsilotini kunma-kun yozib borishi zarur edi. Amir Temur odatda odamni o'z ko'zi bilan ko'rib, suhbatlashib, ishonch hosil qilganidan keyingina unga biron vazifani ishonib topshirar edi. Mazkur safar bir yil davom etadi. Shu o'rinda savol tug'ildi: G'iyosuddin Ali shu muddatda asami yozib tugatganmidi yoki bunga qo'shimcha vaqt talab etilganmidi? Bunisi bizga noma'lum. V.V.Bartold esa "Muharrir so'zboshisi" maqolasida "Hindiston yurishi kundaligi" 1402-yilda yozib bitirilgan, deb taxmin qiladi.

Qiyos qilaylik. Amir Temur Nizomiddin Shomiy bilan 1401-yilda Xalabda uchrashgan... Agar muarrix o'sha yilning o'zida "Zafarnoma" inshosiga kirishgan bo'lsa, G'iyosuddin Alining asari bilan tanishishga ulgurarmidi? Umuman, u mazkur asardan xabardor bo'lganmi? Buyog'i ham bizga qorong'i. Agar Shomiy bundan xabar topganida, shak-shubhasiz, "Zafarnoma"da o'z salafining ishlarini hurmat bilan eslab o'tishi aniq edi.

Mas'uliyati chuqur his qilgan G'iyosuddin Ali qalami o'tkir muarrixlardan ekanini yaqqol ko'rsatdi. U o'z asarida Sohibqiron safarini tasvirlashda, voqealarni yoritishda izchil bo'lishga harakat qildi. Amir Temur topshirig'i bo'yicha muarrix faqatgina Hindiston yurishini emas, balki ungacha Turon saltanatida yuz bergan urushlar va muhim voqealarni ham qalamga olishi lozim edi. Akademik V.V.Bartold mulohazalariga ko'ra, bu asardan Sohibqironning ko'ngli to'lmagan, go'yo shundan keyin Nizomiddin Shomiyga yangi asar yozishni buyurgan...

Bu gapda jon bordek. Avvalo, muallif o'zi bilmagan holda boshqa janglarga nisbatan muzaaffariylar bilan bo'lgan janglar tasviri (G'iyosuddin Ali muzaaffariylar hukronlik qilgan Yazd shahridan edi) ko'proq o'rin berib yuboradi... Buning ustiga, asar "sodda va tushunarli til" bilan yozilmadi, muallifning o'zi aytganiday, sertakalluflikdan yiroq va idrok etmoqqa oson iboralar ila bitilmadi, unda bo'yab-bejashlar yuz berdi. Asardan muallif uslubini ko'rsatuvchi ikki misol keltiramiz: "Oftob semurg'i ko'hi qof ortiga berkingan va kunning kulrang lochini tun zulmati oshiyonida nihon bo'lib, tunning shabrang zog'i charxning zarrin tuxmini (ya'ni quyoshni) o'z qanotlari ostida yashirgach..." Yana: "Shanba (aslida juma) tongida, hinduviy tun posboni turktoz xurshid qarshisida mashriq darichasini ochgan mahal..."

Umuman olganda, G'iyosuddin Alining "Hindiston yurishi kundaligi" tarixiy asari – Sohibqiron saltanati haqida yozilgan birinchi asar ekanligi bilan bizga qadri va e'tiboridir. Boshqacha aytganda, bu – birinchi tajriba edi, bu mavzu hali ochilmagan qo'riq bo'lib yotardi. Sohibqiron haqida yozilgan biron asar yo'q edi... Qanday yozish usullari borligi hali yozguvchiga ham, o'qiguvchiga ham ma'lum emas edi o'sha kezar... Amir Temur Ko'ragondek qudratli jahongir, ulug' siymo ko'z o'ngida uning sharafli faoliyati haqida qalam tebratish, so'z aytish uchun kishi, avvalo, o'ziga qat'iy ishongan, yorqin salohiyat, olmosday zehn, jur'at va jasorat sohibi bo'lishi kerak edi. Aytish kerakki, G'iyosuddin Ali ana shunday jasoratga, kuchga ega ekanini namoyish qila oldi! Uning "Hindiston yurishi kundaligi" asari tarjimasini o'zbek temurshunosligi sahifalarini bezab turadigan noyob asarlardan biri bo'lib qolishiga shubha yo'q.

Muhammad ALI,
O'zbekiston xalq yozuvchisi,
professor

TAQDIMOT



BOLALARNING BOBO NASHRI

Bolalarning sevimli nashri "Tong yulduzi" gazetasi bu yil 95 yoshga to'ladi. 1929-yil 1-avgustda Samarqand shahrida "Lenin uchquni" nomi bilan chop etilgan mazkur gazeta 1992-yilga kelib "Tong yulduzi" nomi bilan chiqa boshlagan. Bu mo'ysafid nashr qariyb bir asrlk tarixga ega.

Poytaxtimizdagi Milliy kutubxonada "Tong yulduzi" gazetasi 95 yilligi munosabati bilan chop etilgan "Tong yulduzi" yoritgan olam" nomli kitob taqdimoti va uzoq yillar davomida gazeta tahririyatida faoliyat yuritgan fotomuxbir Ravil Albekovning ijodiga bag'ishlangan fotosuratlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

"Tong yulduzi" yoritgan olam" nomli kitobning mazmun-mundarijasini shu vaqtga qadar gazetada chop etilgan qiziqarli, sermulo-haza maqolalar boyitgan. Shuningdek, "Tong yulduzi" tahririyati maktabidan yetishib chiqqan taniqli yozuvchi-shoirlarning o'quvchilik chog'laridagi yodnomalari ham o'rin olgan.

– Bugun taqdimoti o'tkazilayotgan kitob o'zbek matbuoti, adabiyoti va madaniyatining o'ziga xos bir ko'zgusi, ensiklopediyasi bo'libdi, – dedi O'zbekiston Qahramoni, yozuvchi, tarjimon Ibrohim G'afurov. – Bu katta bir tarixiy voqea. Kitobni qo'limga olganimda o'ttizinchii yillardan boshlangan o'tmish xayolimda gavdalandi. O'zbek ziyolilarining birortasi o'z ijodiy faoliyatini boshlashda bu gazetani chetlab o'tmagan. "Tong yulduzi" gazetasi Odil Yoqubov, Ramz Bobojon, Xudoyberdi To'xtaboyev, Po'lat Mo'min, Quddus Muhammadiy kabi taniqli ijodkorlarning ilk asarlari chop etilib, ularning tanilishida va sevilishida katta xizmat qilgan nashrlardan biridir. Ushbu kitob ham xalqimizga uzoq yillar davomida tarixiy manba sifatida xizmat qilsin.



– Bugun tom ma'noda o'zbek bolalar matbuoti va bolalar adabiyotining bayrami, desak mubolag'a bo'lmaydi, – dedi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, O'zbekiston milliy axborot agentligi direktori Abdusaid Ko'chimov. – Jurnalistlik faoliyatimni boshlashda bu gazeta maktab vazifasini o'tagan. Men bu kasbning haqiqiy zahmatlarini shu yerda his qilganman. Go'dak qalbli otaxon gazeta o'zbek matbuotining bosh buloqlaridan biridir.

Kitob taqdimoti bilan birga Ravil Albekovning qir-qandan ziyod asarlari jamlangan mo'jaz fotoko'rgazma ham mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. So'zga chiqqanlar fotomuxbir haqida ko'plab iliq fikrlar bildirishdi. Ko'rgazma haqida "Tong yulduzi" gazetasi bosh muharriri Feruza Odilova shunday dedi:

– Ravil Albekov nafaqat "Tong yulduzi"da, balki butun bolalar matbuotida o'ziga xos o'rni bor fotomuxbirlardan edi. Ijodkor shoir bitta she'ri ustida qancha ter to'kib mehnat qilsa, Ravil Albekov ham har suratiga katta bir asardek yondashardi. Gazeta tahririyatida qirq yildan ortiq faoliyat yuritgani, uning o'z kasbiga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqatidan dalolatdir. U bolalar dunyosini o'z dunyosi, deb bilan va xayolan boladek yashar edi. Ya'zin kunlarda O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamkorligida Ravil Albekovning shaxsiy fotoko'rgazmasini tashkil etish rejalashtirilgan.

Tadbir so'ngida gazetada uzoq yillar mehnat qilgan muharrir, faol mualliflar, shu jumladan, o'quvchilar tahririyat tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Vasila HABIBULLAYEVA



MUSHOHADA

Shubhasiz, mikrobiologiya – insoniyatning kelajagi va taqdiri bevosita bog‘liq bo‘lgan xos ilm sohalaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda yurtimizda ushbu tarmoq rivojiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti direktori, akademik Qahramon Davronov bilan shu haqda suhbatlashdik.

– **Domla, suhbatimiz avvalida Mikrobiologiya institutining, mikroorganizmlar tadqiqotining ahamiyati haqida to‘xtal-sangiz.**

– O‘tgan asrning oxirlarigacha umumiy biologiya va mikrobiologiya fanlari bir-biridan deyarli ajralgan holda, mustaqil ravishda rivojlanib kelgan. Tabiatda tarqalgan mikroorganizmlar esa juda ham xilma-xil. Ular sharoitga moslashuvchan, hattoki yashab qolish uchun o‘ta zaharli kimyoviy pestitsidlar bilan oziqlanib, ularni parchalash xususiyatiga ham ega. Shuning uchun mutaxassislar mikroorganizmlarni “dunyoning sanitarlari” deb atashadi.

Institutimiz olimlari atrof-muhitda keng tarqalgan, inson faoliyati uchun foydali xususiyatga ega bo‘lgan mikroorganizmlar dunyosini, ularning tarqalishi, ko‘payishi va moslashuvchanligini o‘rganish orqali foydali moddalar ajratib olish bilan shug‘ullanadi. Institutimizdagi to‘qqizta ilmiy laboratoriyada mikroorganizmlarning ko‘plab yo‘nalishdagi xususiyatlari o‘rganiladi. Shu asosda turli xil preparatlar yaratiladi.

– **Mikrobiologiya fanining rivoji iqtisodiyot, texnika, tibbiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarining yuksalishiga ham beqiyos ta‘sir ko‘rsatishi ma‘lum. Shu borada institutda qanday ishlar amalga oshirilayapti?**

– Biz o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini rag‘batlantiruvchi, tuproq unumdorligini oshiruvchi, turli xil chiqindilardan gumus moddalarini sintez qiluvchi mikroorganizmlarni ko‘paytirish ustida tadqiqotlar olib borayapmiz. Atmosfera tarkibidagi molekulyar azotni o‘simlik uchun qulay bo‘lgan ammoniyli shaklga aylantirib, azotfiksatsiya qiluvchi bakteriyalar asosida ko‘plab mikrobiologik preparatlar yaratganmiz. Ularni patentlab, texnologik reglamentini yaratib, qishloq xo‘jaligi amaliyotida foydalanish uchun ruxsatnomaga ham ega bo‘ldik. “Azo-O‘z”, “Yer malhami”, “Bist”, “Subtin” preparatlari shular jumlasidan. O‘simliklarni turli kasalliklardan himoya qiluvchi mikroorganizmlar, masalan, ko‘sak qurti, ildiz chirishi, barg so‘lishi, vilt kabi kasalliklarning oldini oluvchi va ularni davolash xususiyatiga ega bo‘lgan vositalar: ekobak, luch, fitobiosol, mikroostirgich ham yaratildi. Preparatlarimiz tuproqning pH va uning tarkibidagi mikrobiom balansini me‘yorga keltiradi, tuproq tarkibidagi fosfor birikmalarini o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan shaklga o‘tkazadi. Bundan tashqari, tuproqqa solinadigan mineral va organik o‘g‘itlarni o‘zlashtirish darajasini, unumdorligini oshirib, ekologik holatini yaxshilaydi. O‘simliklarning ildiz chirishi, alitermarioz kasalliklari bilan kasallanishini pasaytirish, ularning ildiz tizimi, poyasini yaxshilash hisobidan hosildorlikni 25-40 foizgacha oshiradi. Yana bir muhim jihati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining pishib yetilish muddatini qisqartiradi.

Shuningdek, institutimizda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilikda ishlatiladigan trixostin, probiokorm kabi o‘nlab preparatlar yaratilgan. Ular omuxta-yemni oqsil moddalarini, aminokislotalar, fermentlar, uglevodlar, vitaminlar bilan boyitadi, hayvonlar sog‘lig‘ini barqarorlashtiradi. Bu preparatlar turli kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalarga qarshi antimikrob faollik xususiyatiga ham ega. Ular hayvonlar va parrandalarda moddalar almashinuvi va ozuqa hazm bo‘lishi jarayonini yaxshilaydi. Ichak mikrobiomining rivojlanishini maromlashtiradi, ozuqa-yem sarfini pasaytiradi va chorva mollarining mahsuldorligini oshiradi.

Yana turli joylarda tarqalgan probiotik bakteriyalar faoliyatidan hayvon, baliq, parrandalar uchun ozuqa tayyorlash, silos bostirish, dehqonchilik amaliyotida foydalanish uchun o‘nlab preparatlar yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilish uchun tayyorlab qo‘yildi.

Tuproq sho‘rlanishi zamonamizning eng yirik muammolaridan biridir. Orol dengizining qurishi oqibatida mamlakatimizda tuproq sho‘rlanishi kuchaygani sir emas. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlarida sug‘orma dehqonchilik qilinadigan maydonlarning 96-100 foizi turli darajada sho‘rlangan. Bu jarayon Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarda ham davom etmoqda. Bugun an’anaviy sho‘r yuvish usuli o‘zini oqlamay qo‘ydi. Chunki mintaqamizda suv tanqisligi yuqori. Bu olimlarning oldiga sho‘rlanishga sababchi bo‘lgan tuzlar bilan oziqlanib, o‘simlik uchun foydali bo‘lgan moddalar sintez qilish xususiyatiga ega bo‘lgan mikroorganizmlar turlarini qidirib topish va ular asosida yangi, doqbarbardosh biopreparatlar yaratishdek raqobat masalalari qo‘ymoqda. Hozirgacha 25 foizli tuzli eritmada o‘simlik, rivojlanib, ko‘payadigan mikroorganizmlar topilgan. Ularning DNK tarkibini

o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgan.

– **Ayting-chi, institutda bevosita inson salomatligi bilan bog‘liq qanday ilmiy izlanishlar olib borilyapti?**

– Inson mikrobiomini talqin qilish orqali uni turli xastalıklardan saqlashga oid tadqiqotlarni bu borada olib borilayotgan o‘ta qiziqarli va kelajagi portloq yo‘nalishlardan biri, deyish mumkin. Olimlarimiz inson ichagida yashovchi

olimlarimiz ham izlanishlar olib bormoqda. Institutimizning molekulyar biologiya laboratoriyasida Ilhom Xalilov boshchiligidagi ekstremofil orasidan plastik parchalovchi mikroorganizmlarni axtarish hamda shunday xususiyatga ega bo‘lganlarini gen injeneriyasi yo‘li bilan yaratish ustida tizimli tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgan. Ayni damda polietilenterefaladni parchalash xususiyatiga ega bo‘lgan bakteriya yaratildi. Ammo bu jarayonning tezligi hozircha chet elliklar bilan raqobat qila olmaydi. Yaqin kelajakda bu ishni oxiriga yetkazamiz, deb o‘ylayman.

– **Antibiotiklarning foydali jihatlarini ko‘pchilik ma‘lum, ulardan noo‘rin foydalanishning zararlari ham sir emas. “Antibiotik vositasini” dan qanday qutulish mumkin?**

– Har bir inson tug‘ilganidan boshlab biologik “himoya qobig‘i”, bakteriyalardan tashkil topgan to‘siqlar bilan o‘rab olinadi. Bu bakteriyalar

masligi oqibatida organizmda tirik qolgan kasal qo‘zg‘atuvchi bakteriya populyatsiyasi past dozadagi antibiotikka moslashish uchun juda yaxshi imkoniyat topadi va keyingi kasallanishda nisbatan kattaroq himoya vositasiga ega bo‘ladi. Oqibatda oldin davolash uchun ishlatilgan antibiotik bemorga ta‘sir ko‘rsata olmaydi. Shunda boshqasiga, keyinchalik yanayam kuchliroq antibiotikka o‘tiladi va hokazo. Aynan shuning uchun ham Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti: “Agar antibiotiklar bilan shu tartibda “davolash” davom etaversa, yaqin orada insoniyat jahon urushi holatiga tushib, yaratilgan mutant bakteriyalarga qarshi qurolsiz, ojiz bo‘lib qoladi”, deb ogohlantirdi.

Bugungi kunning eng xavfli bakteriyalaridan biri oltin stafilokokki (staphylococcus aureus) hisoblanadi. Chunki bu bakteriyalarga qarshi ta‘sir etuvchi antibiotiklarga chidamli bo‘lgan shtamm paydo bo‘lgan va unga MRSA (meticillin-resistant Staphylococcus aureus) deb

bioinformatika yo‘nalishi an’anaviy mikrobiologiyaning o‘rnini butunlay bosa oladimi? Bioinformatikaning bugungi ahamiyati, yurtimizdagi rivojiga qanday?

– Haqiqatan ham, keyingi vaqtlarda molekulyar usullar va bioinformatika uyg‘unligi asosida mikroorganizmlar xilma-xilligi borasida juda katta inqilobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bioinformatiklar xonadan chiqmasdan, kompyuter qarshisida o‘tirib deyarli hamma ishlarni qilishlari mumkin: ular yangi genom ketma-ketligini topish, mikroorganizmlar xususiyatlarini aniqlash, hattoki mana shu virtual mikroorganizm nomini qo‘yish imkoniyatlariga ham ega.

Ya‘ni, mohiyati bo‘yicha yangi guruh mikroblar, ba‘zida eng yuqori darajada – tartib, sinf, filumlar aniqlangan, ammo bu mikroblarni hech qachon, hech kim ko‘rmaydi. Mana shu ishlarning hammasi ikki oyda bajarilishi mumkin. Ammo klassik usullar yordamida mikroblarni ajratish, uning ta‘rif-tavsifini ishlab chiqish uchun kamida ikki-uch, ba‘zida besh yilgacha mashaqqatli mehnat qilish kerak bo‘ladi.

Mikrobiologik tadqiqotlar – yetarli darajada ko‘p mehnat talab qiladigan ish. Ozuqa muhitini tayyorlash, uning tarkibini optimallashtirish zarur. Ba‘zida mikroorganizm noma‘lum sabablarga ko‘ra o‘shirdan o‘xtaydi. Oqibatda dastlab muvaffaqiyatli boshlangan ishlar oxirida natijasiz tugallanadi. Buning ustiga, ekologik nuqta nazardan eng muhim bo‘lgan mikroblar juda sekin o‘sadi.

Yangi mikroblarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qidirish, ajratish va o‘rganishdan tashqari, uni ikkita xalqaro kolleksiyada ro‘yxatdan o‘tkazish va uzoq vaqt saqlash uchun yuborish kerak. Shu ishlar bajarilmasa, yangi topilgan mikroorganizm nomi rasmiy tan olingan mikroorganizmlarning umumiy ro‘yxatiga kiritilmaydi.

Masala shundaki, bioinformatiklar yangi mikroblarga “ism” va “nasab” – tur va turkum berishadi, keyin unga Candidatus (nomzod) degan so‘zni qo‘shib qo‘yishadi. Bu juda chalkashlikka olib keladi, chunki mikrobiologlar laboratoriyada olgan, ularning genomini o‘rganib, toza kultura sifatida ajratib olmagun kultura ham xuddi shunday nomlanadi. Aslida bunga turlicha qarasa bo‘ladi, chunki mikrobiologlar ajratgan kulturani ko‘z bilan ko‘rish, xususiyatlarini o‘rganish mumkin. Hech kim hech qachon ko‘rmagan, informatiklar tomonidan nomlangan “kultura” – bu xayoliy (fantom). Mana shular informatiklar va mikrobiologlar orasida qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Mikrobiologlar jarayon nazoratdan chiqib borayotganini tushunib yetdi.

Yaqinda dunyo hamjamiyati ishtirokida “Candidatus”ni “odatdagi” mikroblar qatorida qabul qilish kerakmi, degan savolga javob topish maqsadida mutaxassislar orasida ovoz berish jarayoni o‘tkazildi. Ovoz berish milliy mikrobiologiya jamiyati orqali o‘tkazildi va natijada “Candidatus”ni to‘laonli mikroblar sifatida qabul qilmaslik kerak, degan xulosaga kelindi.

– **Yurtimizda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonlari, xalqaro aloqalar, dunyo tajribasini o‘zlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham to‘xtal-sangiz.**

– Mikrobiologiya institutida davlat dasturlari doirasida ko‘plab ilmiy loyihalar bajarilmoqda. Ularning ayrimlari xalqaro miqyosda chet ellik hamkorlarimiz bilan birga amalga oshirilayapti. Hozirgacha institutimizda Rossiya, Xitoy, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Vengriya, Germaniya kabi ko‘plab davlatlarning ilmiy markazlari olimlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorliklar yo‘lga qo‘yilgan. Bu, albatta, amaldagi fundamental, amaliy, innovatsion va boshqa loyihalarning ijobiy natijalari asosida xodimlarimizni turli ilmiy amaliyotlarga yuborishda, namunali darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini, nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etishda, ilmiy ishlarni uchun guvohnomalar va patentlarni himoya qilishda, turli o‘quv seminarlari tashkil etishda qo‘l kelmoqda.

Mikrobiologiya instituti olimlarining qishloq xo‘jaligi ekinlarini turli kasalliklardan samarali himoya qilish va hosildorligini oshirish vositasi sifatida yaratilgan ekologik xavfsiz “Microzyme” biopreparati tojikistonlik mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi va “Farnico Tojikiston” MCHJ bilan tuzilgan shartnoma asosida ularga mazkur biopreparatdan 4230 litr hajmda yetkazib berildi.

Mikrobiologiya sohasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va olinayotgan muhim natijalar mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida mavqegini mustahkamlashga, institutning o‘z sohasi bo‘yicha mintaqaviy yetakchilik o‘rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, keyingi vaqtlarda mamlakatimizda mikroorganizmlar biologik xilma-xilligi va undan oqilona foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab beradigan bir qator qonunlar, Prezident va hukumat qarorlari qabul qilingani hamda xalqaro konventsional ratifikatsiya qilingani ushbu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– **Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat, domla. Sermashaqqat va sharafli izlanishlaringizda muvaffaqiyat tilaymiz...**

Muyassar IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

INSONIYAT TAQDIRINI BELGILOVCHI FAN



mikroblar xususiyatini o‘rganish orqali ular asosida turli preparatlar yaratish bilan ham shug‘ullanadi. Ana shunday yo‘l bilan yaratilgan dori-darmonlar bugungi kunda dorixona peshtaxtalaridan joy olgan. Masalan, ichak yarasisiga sabab bo‘luvchi “Helicobacter pylori” deb ataluvchi bakteriya ayni paytda ham davolovchi, ham shu kasallikning o‘shirishini to‘xtatib qo‘yuvchi vosita sifatida ishlatilmoqda.

– **Sayyoramizdagi ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish uchun olimlar ta‘limni “biologizatsiya qilish” zaruratini ta‘kidlashmoqda. Nega aynan “biologizatsiya?” “Ekologizatsiya” emas?**

– Chunki ekologiya organizmlar fundamental xossalari o‘zini emas, balki bu xossalari namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Biosiyosat, bioetika, biosentrim – yangi falsafiy doktrina, biologik xilma-xillikni asrash haqida deklaratsiyani imzolashni va barqaror rivojlanish jamiyatining paydo bo‘lgani ham bu ishlarni amalga oshirishning qanchalik zarurligini ko‘rsatadi.

Ta‘limning yangi, ustuvor yo‘nalishlari insonlar, xususan, siyosatsahnoslar ongida shunday o‘zgarishlar paydo qilishi kerakki, davlatlar bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatga rioya qilish eng katta burchga aylanishi lozim.

Hozirgi vaqtda biologiya – ilm-fanning eng ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu sohada yaratilgan yangiliklar sharoitlarni emas, balki hayotiy jarayonlarning o‘zini boshqarish imkoniyatini beradi. Ammo har bir jarayonda biologiya, kimyo va fizika fanlari orasidagi ajralmas birlik borligini esdan chiqarmaslik kerak.

Mikrobiologiya biologiyaning yirik bir tarmog‘i bo‘lishiga qaramasdan, nafaqat biologiya

bir-biri hamda tananing immuniteti bilan o‘zaro mustahkam munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun ham “begona”ning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Odamning kunlik ratsionidan bakteriyalar har kuni 45 grammacha uglevodlarni qabul qilib oladi va polisaxarid, lipid hamda 30 foizgacha hazm bo‘lmaydigan oqsil moddalarini va organizmda to‘planadigan butun mochevinaning 25 foizini parchalab turadi.

Tibbiyotda qo‘llanilayotgan antibiotiklar bemor tanasini “yomon” bakteriyalardan xalos qilish barobarida bir qator foydali bakteriyalarni ham nobud qiladi. Oqibatda tabiiy himoya to‘sig‘ida “tuyunuklar” paydo bo‘ladi va shu orqali inson tanasiga har xil patogen bakteriyalar ham bemalol kirib keladi...

Hozirda virulent bakteriyalarning tabiiy dushmani bo‘lgan probiotiklarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bunday izlanishlar bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bakteriyalardan bir vaqtda foydalanishni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadqiqotlarning boshlang‘ich bosqichidir.

Hozirgi vaqtda eski nishonga ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan samaraliroq antibiotiklar ishlab chiqarish ustida ham ish olib borilmoqda. Bir vaqtning o‘zida yangi maqsadlar – bakteriya hujayralarining bo‘linishini hamda yog‘ kislotalar biosintezini buzish, metabolizm fermentlarini ingibirlashni o‘z ichiga oladi. Ammo bakteriyalar shunday hollarda ham tirik qolib, agressiv sharoitga moslashib bormoqda. Bugun ushbu masala dunyo olimlarining hamkorligida, zudlik bilan yechilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biri sifatida qabul qilingan.

– **Ilmiy adabiyotlarda uchraydigan “virulent bakteriyalarni odamlarning**



fan tarmoqlariga, balki fizika va kimyoga ham qarindosh bo‘lgan mustaqil fan hisoblanadi. Uni o‘qitishni kengaytirish va chuqurlashtirish, shubhasiz, universal bilim olish uchun zarurdir.

– **Havoning ifloslanishiga ta‘sir o‘tkazayotgan, tabiatga jiddiy xavf tug‘dirayotgan plastik va sellofan kabi materiallarni chirituvchi bakteriyalar ham fanga ma‘lummi? Bu borada qanday izlanishlar olib borilyapti?**

– Butun dunyo laboratoriyalarida tadqiqot olib boriladigan eng qiziq vazifalardan biri – plastikni parchalash muammosidir. Bu masalaning yechimini topish ustida bizning

o‘zlari yaratadi” degan fikr qanchalik asosli?

– Shuning uchun ham bakteriyalar va farmatsevtlar orasida kurash davom etib kelmoqda. Olimlar antibiotiklar yordamida xavfli bakteriyalarning yangi shtammlarini “yaratadilar” va keyin o‘zlari ularga qarshi kurash e‘lon qiladilar. Bunday keng qamrovli seleksiyada, ayniqsa, antibiotiklar arzon, retseptsiz sotib olish mumkin bo‘lgan mamlakatlarda yordam beradi. Bunday davlatlarda shifokorlar davolashning butun siklini to‘g‘ri bajarayotganini kuzatishning imkoniyati yo‘q. Ayniqsa, antibiotik yetarli dozada qabul qilin-

nom qo‘yilgan. Buyuk Britaniyadagi London universiteti kolleji yuqumli kasalliklar markazi mikrobiologi Mark Shpigelmanning fikricha, gigiyenaga haddan ortiq berilish odamlarga zarar keltirmaydigan bakteriyalarning yo‘qolishiga olib keladi va MRSA uchun joy ochib beradi. Qolaversa, bu hol antibiotiklarga chidamli bo‘lgan shtammlarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lib, bakteriyalarda odatda ishlamaydigan himoya mexanizmlarining faollashuviga olib keladi. Tabiiyki, operatsiya xonasi sterilangan bo‘lishi, jarroh qo‘lini antibakterial sovun bilan yuvishi kerak. Ammo keyingi ma‘lumotlar barchani – chaqaloq parvarish qilayotgan onalardan tortib, shifokorlarga gijiyena borasidagi qarashini qayta ko‘rib chiqishini talab qilmoqda.

– **Inson organizmidagi bakteriyalar adadi hujayralarga nisbatan ko‘proq bo‘lib, mikroorganizmlarning miqdori kishining qiyofasi va hatto xulq-atvoriga ham ta‘sir qilarkan. Inson tanasida patogen va foydali mikroblar muvozanatini nazorat qilishda qanday texnologiyalar ishlab chiqilmoqda?**

– JSST har yili insoniyat salomatligi uchun ahamiyatli bo‘lgan muammoni tanlab olib, uning yechimini topishga qaratilgan xalqaro chiqiriq bilan murojaat qiladi. Tashkilotning kasal qo‘zg‘atuvchi mikroblarga qarshi ishlatiladigan preparatlarining barqarorligini saqlab qolish bo‘yicha Global strategiyasi chop etilganiga yigirma yildan ko‘proq vaqt o‘tdi. Ammo bu muammo hozirgacha o‘z yechimini topgani yo‘q.

Mikrobiologiyaning rivojlanishi olimlar bakteriyalar dunyosining inson hayotidagi rolini aniqlash ustida ko‘proq bosh qotirishlari zarurligini taqozo qildi. Bu muammo ko‘tarilganiga bir asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi va shu fursat ichida bakteriyalarsiz yashash mumkin emasligi aniq bo‘ldi. Bugungi kunda antibiotiklar bilan davolanganidan keyin iste‘mol qilinishi kerak bo‘lgan “Bifido va laktobakteriyalar” va probiotik xapdorlarning turli xillari ixtiro qilingan va keng ishlatib kelinmoqda. Ammo shu bilan bir qatorda, butunlay xavfsiz bakteriyalarning o‘zi yo‘qligi ham ma‘lum bo‘lib qoldi.

Bakteriyalar – halqaga o‘ralgan genetik materialni o‘zida saqlaydigan hujayralar (sirkulyar shakldagi ikki spiralli DNK)dir. Odamni esa bakteriyalarga ozuqa yetkazib beruvchi, ularni kerakli namlik va harorat bilan ta‘minlab turuvchi “inkubator”ga qiyoslash mumkin. Bunday “g‘amxo‘rlilik”ka javoban bakteriyalar insonni turli patogen va toksinlardan himoya qiladi, ovqat hazm bo‘lishiga va immunitetni faol ushlab turishga yordam beradi. Agar mana shu muvozanat o‘zgaradigan bo‘lsa, mikrobiosenozning ba‘zi vakillari o‘zlarining xossa va xususiyatlarini o‘zgartirib, virulent tus oladilar, ya‘ni infeksiya tashuvchi, ziyon keltiruvchiga aylanib qoladi.

Inson vujudida bakteriyalarning yuzlab turlari yashaydi. Eng qizig‘i, ularning to‘plami har bir odam uchun noyob va o‘ziga xos bo‘ladi. Hatto bakteriyalarning har xil turlarining uchrashi va ularning miqdori ham har bir inson uchun individual bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar genotip bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Mikrobiomning individualligi, insonning tug‘ma immunitet tizimi bilan belgilanishi haqidagi ilmiy ma‘lumotlar ham juda katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki organizm o‘zining shaxsiy mikrobiomiga nisbatan reaksiya bermasligi aniq.

– **Dunyoda molekulyar usullar va bioinformatika ko‘magida juda katta ishlar amalga oshirilgani ma‘lum. Ayting-chi,**



YURT QAYG'USI

FITRAT — FIDOYI TILSHUNOS

Elni erkka eltmoqni, yurtning yorug' yo'lini ochmoqni o'zlarining aziz umrlariga abadul-oxir badal deb bilgan jadid bobolarimiz mashaqqatli va muntazam faoliyati davomida ma'rifatni, ma'naviyatni va madaniyatni madadkor qudrat, qiyossiz qurol deb hisobladi. Shuning uchun ham ular alifbo, yozuv, imlo va umuman, til masalalariga favqulodda e'tibor bilan qaradilar. Zotan, o'lkamizda o'tgan asrning boshlarida mazkur masalalar yechimimiz ma'rifat bilan oshno bo'lmoqlik, loqaq dunyoga maktab-ma'rifat ko'zi ila boqa bilmoqlik mushkul ish ekanligi ravshan edi. Tabiiyki, maktab-maorif ishlarining samaradorligi uchun ham til borasidagi har xilliklarga barham berish, tilning qoidalarini yuzaga keltirish va ularni ta'limga olib kirish kabi bir qancha muhim yumushlar mavjud edi.



Bunday zaruriyatni jadidlar jadal bir tarzda anglab yetdilar, o'zbek tilining rivoji uchun ulkan ishlar amalga oshirdilar. Shu asosda o'zbek tilshunosligi shakllana boshladi. Bu tilshunoslikning tadrijiga xizmat qilgan bir qator jadid olimlarining tilshunoslik merosi o'zbek tili ilmi-da anchayin keng o'rganilgan, Abdurauf Fitratning tilshunoslik merosini juda batafsil tadqiq etgan professor M.Qurbonova va qayd qilganiday, "hozirgi o'zbek tilshunosligi fani asrimizning 20-yillarida vujudga kelgan bo'lib, unga Abdurauf Fitrat va uning zamondoshlari Elbek, Munavvar qori, Qayum Ramazon, G'oz Olim, Sh.Zunnunlar tamal toshini qo'yg'an edi. Ular tomonidan yozib qoldirilgan no-yob asarlar hozirgi tilshunosligimizning sarchashmalaridir".

Alohida ta'kidlash lozimki, Fitrat o'z davridagi asosiy diqqat-e'tibordagi bo'lgan barcha lisoniy muammolarning muhokamalarida o'zining aniq, ilmiy asosli va ochiq fikr-mulohazalari bilan ishtirok etgan, zamonning kun tartibida chirsillab turgan til va til bilan bog'liq masalalar bo'yicha zalvorli fikrlarini bayon etgan, ko'plab maqola va risolalarini e'lon qilgan. Fitrat u yoki bu munozarachi bilan til borasida bahsga kirishar ekan, til ilmi-ni zukko bilimdoni sifatida inkor etib bo'lmaydigan xolis ilmiy dalillar bilan o'z fikrlarini asoslaydi. O'z davridagi aksar ziyolilar tomonidan turli shakllarda bayon qilingan "tilimizni arab-fors unsurlari-dan tozalashning imkonisizligi" borasida-gi juda keskin da'volarning zamini bo'sh ekanligini ko'rsatib beradi. Masalan, Fitrat 1919-yildagi "Tilimiz" nomli maqo-lasida e'tirozchilarning "turkcha arab, fors tillaridan qutulolmas, chunki, tilimizda ko'p narsaning oti yo'qdir" qabilidagi id-daolarga shunday javob qiladi: "Javo-bimiz: bu so'zdan tilagingiz nimadir? Shul choqda tilingizdagi arab, fors so'zlar-i-ni turkchasi topilmaydur demochki bo'lsangiz, so'zingiz yangilashdir. Turk-chani bilmas ekansiz. O'rganing. Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydur, desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqar-mochki emasiz. Ularni olurmiz, lekin o'zimizniki qilmuriz. Turkchalashturmiz. Qoidaning turkchasi yo'qdur. Sarfning-da turkchasini topolmadik. Ikkinchi dahi olurmiz. Lekin, siz kabi qavoidi sarfiya demasdan, sarf qoidalarini dermiz. Chun-ki ilmiy istilohlarning turkchasi yo'qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi qu-yoshdir. Kavokibning turkchasi yulduz-lardir. Manovning turkchasi olov, o'tdir. Sahobi munavvar – yorug' bulut, handa-sa – o'lchov xat chiziq, zoviya – burchak, puchmoqdir. Kavokibi sobita – turg'uchi yulduzdir. Kavokibi zu zanb – quyruqli yulduzdir".

Fitrat mazkur maqoladagi fikrlarini noto'g'ri talqin qila boshlagan ayrim "tilshunos"larga ayni sarlavhali boshqa maqola bilan javob bergan, maqsad-i-ni mag'z-u mohiyatini ikki karra ikki to'rtday aniq bayon qilgan. Uning ushbu so'zlaridagi bir qadar og'rig'-u o'kinch-i-ni ilg'amaslik mumkin emas: "Men turk ulusig'a o'z boshli (mustaqil) bir til va shu tilda yozilgan "ilm" istayman. Turk-chaning boylig'i, kengligi va to'lg'unlig'ini bilganim uchun bu ishni qulay deb isho-naman. Tilimizning o'z boyligi (mustaqil) bo'lib turushi uchun gaplarga va yozuv-larimiz aro kirib qolg'an yot so'zlarning o'zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlay(l)ik. Tilimizdagi yozilgan "bilim"ni ko'rmak uchun "ilmiy istilohlar" dedimiz "bilim so'zlar"ning ham ilkimizdan kelgan turkchalari-ni topib olmoq yo'linda tirishmakni har bir turk yozuvchisi uchun "vojib" deb bi-laman. Turkchasi topilmagan so'zlar va

istilohlar bor esa, ularni chiqarib tashlab, o'runkalari bo'sh qo'yaylik demayman. Turkchasi topilmagan so'zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchani buyrug' ostin-da kirib qolsun; boshqacha turli aytkan-da, Fransa (Fransiya)da yashagan bir turk kabi bo'lundig'i turkchani qonun-lariga bo'yunsunib yashasun; turkcha-da turg'an bir fransuzdek "kapitulat-sion" asrari ostida turmasun". Uning bu va boshqa qaydlari bilan tanishganda, olim zabardast tilshunos sifatida o'zbek tilining softligi va rivoji uchun nechog'lik muntazam qayg'uraganligiga, mazkur masalaga chinakam ilmiy mantiq va ter-an hassosiyat bilan yondashganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudiyning haqiqiy izdoshi va shogirdi, ma'rifatchi Hoji Muin 1918-yilning 20-avgustida "Mehnatkash-lar tovushi" gazetasida bosilgan "Til ma-salasi" nomli maqolasida ko'nglida bir og'riq bilan quyidagi gaplarni aytdi: "Biz turkcha qoidalarini bilganlari uchun hozirgi mirzo va tarjimon birodarlari-miz-ni ayblay olmaymiz, alar bu to'g'rida ma'zurdir. Chunki alar va bizlarning hech qaysimiz muntazam maktablarda o'qub chiqmag'on. Til qoidalarining ta'limi muntazam maktablarda bo'lardiki, munda-y maktablar hanzur Turkistonimizda ochilg'on emas. Hozirgacha davom etib kelgan yangi maktablarimizda bo'lsa, turkiy tilimizning sarf va nahvi o'qutula boshlag'oni yo'q. Bizning turkiy tilimiz ishlanmag'on bir til bo'lib, muning sarf va nahvig'a oid hanzur biror turli risola bosil-i-b chiqq'on emas. Bizning muallim afandila-rimiz til qoidalarini yaxshi bilmaydirlar-ki, ushbu kungacha ba'zilar tarafdinlar yozilg'on maktab kitoblaridan ma'lum-dir". Bu gaplardan ochiq ko'rinib turibdi-ki, davrning aksariyat ma'rifatparvarlari chinakam milliy til asoslariga tayangan grammatikaga bo'lgan ehtiyojni chuqur anglab yetganlar va shuning uchun ham shunday grammatika yaratish zaruriyat-i-ni kun tartibiga qo'yg'anlar. M.Qurbono-va alohida ta'kidlaganidek, "A.Fitratning o'zbek tilshunosligi tarixida eng katta xizmatlaridan yana biri uning o'zbek tili milliy grammatikasiga asos solganligidir. 20-yillarda o'zbek tiliga doir asarlar juda ozchilikni tashkil qilardi. O'sha vaqtda maktablarda ona tili sifatida usmonli turk tili o'rgatila boshlagan va tilimiz grammatikasi ham o'sha til grammat-i-kasi ta'sirida qolgan edi. Ana shunday sharoitda A.Fitrat tilimizning o'z tabi-atidan, o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda milliy grammatika yaratdi".

Ma'lumki, Fitratning bu milliy gram-matikasi "O'zbek tili qoidalarini to'g'rusi-da bir tajriba" deb nomlangan bo'lib, uning birinchi kitobi, ya'ni "Sarf" 1924-1930-yil-larda olti marta, ikkinchi kitobi, ya'ni "Nahv" shu yillarda besh marta qayta nashr qilgan.

Fitrat 1921-yil Til va imlo qurultoyida so'zlagan nutqida "Chig'atoy gurungi" atrofida to'plangan kishilarning ilgari sur-gan til bilan bog'liq fikrlarini umumlashti-rar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "Tilimizning adabiytili arabiylikda emas, o'zidadir, shuni tirmizimka kerak... Tilimizning qoidalarini totorcha yoxud usmonli qoida kitoblaridan emas, til-i-mizning o'zidan olmoq kerak. Shuning uchun xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'an ertaklar, maqollar, la-parlarni yig'ib tekshirmak kerak. Adabiyot yozu(v)chilik bo'lg'ani uchun yozu(v) qoi-dalarini, imloni tuzatmak kerak".

Chinakam ma'rifatparvar bobomiz Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalarini to'g'ru-sida bir tajriba" asarining birinchi kitobi bo'lmish "Sarf"ning muqaddimasi si-fatidagi "Bir-iki so'z"ida taassuf bilan: "Butun turk dunyosi uchun "bir yalpi til"

qabul etmak xayollari bilan ovora bo'ldi-q. Tilimizni shunga to'g'ri yurg'uzmoq uchun unumsiz tirishdik. Bu xayollarning ishka oshmag'onin bilgandan keyin o'z tilimizni, o'z imlomizni tushuna bosh-ladiq... Biroq hanzur tilimizning belgili qoidalarini maydong'a qo'ya olmadig', degan gaplarni aytdi. Fitrat muqad-dimaning so'ngida "bu ulug' binoning, bu adabiyot madrasasining birinchi toshini tezlik bilan qo'ymoq lozim" de-gan fikrlarni ko'nglidan o'tkazib, g'oyat kamtarona bir ohangda muqaddimani yakunlaydi: "Men til qoidalarini to'g'rusi-da qo'lda bo'lg'an narsalarni tuzib, terib shu bilikchani chiqardim. U bir saboq bitigi emas, mutolaa kitobidir. Tilimiz to'g'rusi-da tugal bir narsa emas, boshlang'ich-dir; ta'rif (ijod qilingan) emas, tajribadir. Buni saralamoq, tuzatmak, kengaytmak yumishlari yigit kuchlarimizning jonli te-b-ranishlarini kutadir".

Ta'kidlash joizki, Fitratning "Sarf" ki-tobida hozirgi tilshunosligimizda tur-g'unlashgan morfologik tushuncha va qoidalarining aksariyati o'z ifodasini top-gan, ba'zilar esa deyarli yaqin yoki o'x-shash talqinlariga egaligi bilan diqqat-ga sazovor. Fitrat o'zbek tilida so'z turlari (hozirda "so'z turkumlari") sifatida ot, sifat, son, fe'l, olmoshlar qatorida ko'makchi so'zlarni ham qayd etadi, al-batta, olim barcha yordamchi so'zlarga ko'makchi so'zlari" sifatida qaragan. U ravishlar haqida gapirmaydi, ammo sifa-tlar haqida fikr bildirganda, sifat ba'zan fe'l oldida qo'langanda, hol ma'nosiga ega bo'lishini yo'l-yo'lakay aytib o'tadiki, uning bu ravishga yaqin ma'no-mazmun masalasini e'tibordan qochirmaganlig-i-ko'rsatadi. So'zlarning tubligi, yasa-maligi, yasama otlarning turlari, sifat va uning darajalari, sonlar va ularning ma'no turlari, fe'l oldi bo'lishi-bo'lish-sizlik, o'zlik majhullik, o'timlilik-saltik, qo'shma fe'llardagi ma'nolarga, fe'l za-monlariga daxldor qoidalar, olmoshlar, ko'makchi so'zlar bilan bog'liq talqinlar kitobdan anchayin batafsil o'rin olgan. Ammo hozirgi tilshunoslikda grammatik (xususan, kelishik qo'shimchalari) shakllar deb qaraluvchi birliklar "belgilar" nomi ostida berilgan, qayd etish o'rini-ki, ularning ma'no-mohiyati anchayin isho-narli talqin qilingan.

Shuni ham alohida qayd etish lozim-ki, Fitrat u yoki bu grammatik tushuncha, hodisani tavsiflar ekan, bu tushunchani anglatuvchi termin (istiloh)ning o'z, ya'ni turkiy so'z bo'lishiga yetarli darajada e'ti-bor qaratadi, imkon qadar arab-fors asli so'zni qo'llamaslikka harakat qiladi. Masalan, sonlarning turlari tavsifida "sanoq son", "sira son", "ulush son", "chama son", "o'rtoqliq son" kabi sof turkiycha terminlari ishlatadi, hozirgi tilshunosligimizda turli sa-bablarga ko'ra "sira son"ning "tartib son", "ulush son"ning "taqsim son", "o'rtoqliq son"ning "jamlovchi son" kabi muqobil-lari turg'unlashganki, ularning o'zaklari arabcha o'zlashma ekanligi ko'rinib turibdi.

"O'zbek tili qoidalarini to'g'rusida bir taj-riba"ning ikkinchi kitobi – "Nahv" (Sin-taksis)ning "O'qug'uchilarga" deyilgan muqaddimasida Fitrat shunday yozadi: "Biz til qoidalarini ham uning atamalar-i (istilohlar) to'g'rusida ishlashning birinchi paytidamiz. Shuning uchun tilimizning qoidalarini bu maydonga qo'yib, atama-larini sobit bir holga keltirib olg'animiz yo'q... Bizning kitoblarimizni muhokama qilib o'qurlar. Bunlarda qoidalar, atama-lar, usullar to'g'rusida fikr yurgizalar; fikr-larini bizlarga ham yozarlar".

Fitratning sintaktik nazariyasi o'z davriga nisbatan anchayin ilgari lab ket-gan, o'zbek tili sintaktik strukturasi-ni

tamoman o'ziga xosligini ko'rsata olgan to'lg'in bir nazariyadir.

Fitratning kesim va uning gapdagi maqomi haqidagi fikrlari alohida diqqatga sazovor, uni aslo chetlab o'tib bo'lmaydi. U 1924-yilda nashr etilgan "O'zbek tili qoidalarini to'g'rusida bir tajriba. Ikkinchi kitob: "Nahv" asarida "bosh so'zlar"ni tavsiflar ekan, egadan oldin kesimni tushuntiradi. Qushlar bog'da ertalab...; Cho'lpon yaqinda yaxshi bir she'r... Kabi "so'z qo'shim"lari gap bo'la olmasligini, ulardan tugal o'y anglashilmasligini ay-tadi. U yozadi: "Bularni tugatmak, gap qilmoq uchun birinchisiga sayraydir, ikin-chisiga yozdi so'zlarini qo'shib: 1.Qush-lar bog'da ertalab sayraydir. 2.Cho'lpon yaqinda yaxshi bir she'r yozdi, deymiz, anglatmoqchi bo'lganimiz o'yni tugalla-tamiz. Gap tugaladir, so'z kesiladi. Gap-ni tamomlanib, so'zning kesilgani shu sayraydir ham yozdi so'zlarini bilan bo'ldi. Shuning uchun yuqoridagi iki gapning oxiridagi yozdi, sayraydir so'zlariga "gapning kesim so'zlari" yo sodacha "ke-sim" deymiz. Gapda so'zlarning oxirig'a kelgan, o'z kelishi bilan so'z qo'shimini gapka aylantirgan so'z – "kesim" so'zdir". Ko'rinib turganiday, Fitrat so'zlar qo'shil-masining gap bo'lishida kesimning maz-muniy-mantiqiy jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligini, garchi bugungi zamonaviy grammatik tushun-chalar asosida bo'lmasa-da, alohida ta'kidlagan, ayni "kesim" terminini behad topqirlik bilan yasagan (kes+im) va qo'l-lagan birinchi o'zbek tilshunosidir.

Hatto muayyan mulohazalar bilan egani gapdagi absolyut hakim bo'lak deb hisoblagan A.G'ulomovday ulkan o'zbek tilshunosi ham kesimning aha-miyati haqida mana bunday yozgan: "Kesim gapning uyushtiruvchi markaz-laridan biridir; u hukmni keltirib chiqa-ruvchi eng muhim bo'lak bo'lganligidan gapning asosiy mazmunini, xarakterini u belgilaydi... Gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich bog'langan-dir... Har bir sof fe'l bir gapni tug'diradi, chunki buda subyekt ham ifodalangan bo'ladi. Bir so'z tusidagi butunlik gapning eng sodda formasidir".

Fitrat mantiq va mantiqchilarning qa-rashlaridan to'la xabardor olim sifatida mantiq ilmi yoki gapning aktual bo'lakla-nishi bilan bog'liq talqinlarni ham tasav-vur qilgan. Shuning uchun ham u o'y yoki hukmning zehniy bir gap ekanligini, uning ham bo'laklari mavjud bo'lishini, eski mantiqchilarga birinchi bo'lak "mavzu", ikkinchi bo'lak esa "mahmul" deyilishini, mavzu" ko'proq egaga, mahmul esa ke-simga to'g'ri kelishini, ammo bu hamma vaqt emasligini yaxshi bilgan. Fitrat ana shu haqiqatlarni bilgani uchun shunday il-miy asosni behad teran xulosa qiladi: "De-mak: nahv kitoblarida ko'rganimiz "gap (jumla) "kim, nima" to'g'rusida aytilsa, shu ega bo'ladi" degan ta'riflar o'ylovga (ya'ni zehniy gaplarga) ko'ra to'g'ri bo'lsa ham, tildagi gaplarga ko'ra yangilashdir. Chunki gap kimning, nimaning to'g'rusida aytilsa, shu "kim-nima" o'yning (mantiqcha ay-tkanda, hukmning) mavzu'i bo'ladi. Biroq har vaqt tildagi gapning ega so'zi bo'lmay-dir. Biz mana shunga tayanib, ega, kesim so'zlarini ta'rif qilganda, yangilik yasadiq. Boshda egani emas, kesimni ta'rif etdik. So'ngra "kesim kim-nima to'g'rusida aytil-sa, shu egadi" dedik".

Ziyrak tilshunos, hassos sintaksischi Fitrat gapdagi kesim va egadan boshqa bo'laklarni "to'ldirg'ich so'zlar" nomi bilan tavsiflagan va uning mohiyatini ochib bergan, bunda hozirgi tilshunoslik-dagi gapning ikkinchi darajali bo'laklari semantik jahatdan yanada chuqurroq, hijjalab tasvirlangan. Zamonaviy sintak-sisda ham har qanday tadqiqotchining doimiy diqqat markazida bo'lgan gap bo'laklarining tushib qolishi, gapning uyushtiruvchi kabi masalalar, gap turlarining qurilish jihatlarini, ayni paytda bu qurilish bilan bog'liq holatda turg'un-lashgan va namoyon bo'ladigan gapning ma'no-mazmuniy turlari benihoya o'ziga xos bir tarzda yoritilgan.

Qissadan hissa shuki, Abdurauf Fit-rat o'tgan asrning boshlarida o'zbek ilmiy tilshunosligining mustahkam asoslarini yaratishday qutlug' ishga munosib hissa qo'shgan, bu ishning sarkorlaridan bo'lgan atloqi tilparvar, chin vatanparvardir.

Nizomiddin MAHMUDOV,
O'R FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Abduxayirov Abdubakr – 1900-yili Samarqand shahri-da tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zo-si. Hibs-ga olinganga qadar o'qlovchilar kollegiyasi a'zosi bo'lgan. O'z uyida aksilinqilobiy yig'inlar uyushtirib, Sovet hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini ifoda qilganlikda ayblangan. Unga 10 yil qamoq jazosi berilgan. Jazo mud-dati 1937-yil 17-sentyabr-dan hisoblangan.

Jo'raboyev To'laboy – 1883-yili Samarqand shahri-da tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. 1921-1926-yillari tashkilot topshirig'i bilan Sovet appa-rati buzilishiga olib kelgan aksilinqilobiy yig'inlarda qat-nashganlikda ayblangan. 10 yil qamoq jazosiga hukm qilin-gan.

QATAG'ON QURBONLARI

Faxriddin Rojii Nasriddinovich – 1878-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Qamalgunga qadar o'qituvchi bo'lgan. Aksilinqilobiy yig'inlarda ishtirok etganlikda ayblanib, 10 yil qamoq jazo-siga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 12-sentyabr-dan hisoblangan.

Shakuriy Abduqodir – 1875-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Hibs-ga olingunga qadar non kontorasi xizmatchi bo'lgan. O'z uyida milliy, aksilinqilobiy yig'inlar tashkil etib, Sovet hokimi-yatiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil qa-moq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 17-sent-yabr-dan hisoblangan.

Nasriddinov Zayniddin – 1869-yili Samarqand shahri-da tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Hibs-ga olingunga qadar Transtorgpida tayyorlovchi bo'lib ishlagan. Aksilinqilobiy yig'inlarda ishtirok etib, ig'vogarlik targ'iboti olib borganlikda ayblangan. 8 yil qamoq jazosi-ga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 10-sentyabr-dan hisoblangan.

Saidov Mullo Husayni – 1897-yili Kattaqo'rg'on shahri-da tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. 1932-yili O'zSSR Jinoyat kodeksining 66 va 175-mod-dalariga ko'ra 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Qamal-gunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. U 500 kishidan iborat bosmachilar to'dasini tashkil etganlikda ayblanib, 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-oktyabr-dan hisoblangan.

Hidayatbekov Inoyat – 1897-yili O'zSSR Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilo-ti a'zosi. Hibs-ga olingunga qadar nonvoyxonada hisobchi bo'lgan. Bosmachilar to'dasini tashkil etganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 20-sentyabr-dan hisoblangan.

Boymatov Hikmatilla – 1895-yili Pop qishlog'ida tug'il-gan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. O'zSSR IXX Namangan shahar bo'limi 3444-sonli ayblov ishi bo'yicha otuvga hukm qilingan. Dastlab 1934-yili sotsialis-tik mulkni talon-taroj qilgani uchun u 5 yil qamoq jazosi-ga hukm etilgan. Qamoqqa olingan vaqtda kolxoz raisi bo'lgan. Kolxoz raisi lavozimidan foydalanib quloqlarni yashirganlikda, kambag'allarni kolxozdan haydashda ayblangan.

Odilov Iltom – 1888-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" va "Milliy istiqloq" aksilinqilobiy tashkilotlari a'zosi. Hibs-ga olingan vaqtda o'qituvchi bo'lgan. U o'quvchi-lar va o'qituvchilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borib, partiya va hukumat rahbarlari sha'niga bo'hton qilganlikda ayblangan. 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 26-avgust-dan hisoblangan.

Saidjonov Yunusboy – 1877-yili tug'ilgan. "Milliy itti-hod" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Qamalgunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida aksilinqilobiy, millatchilik targ'ibotini olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 6-moddasi 1-bandiga ko'ra 10 yil qamoq jazosiga hukm etil-gan. Jazo muddati 1937-yil 15-sentyabr-dan hisoblangan.

Saidjonov Qurbonjon – 1886-yili Buxoro shahrida tug'il-gan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi. Aholi orasida millatchilik targ'ibotini olib borganlik-da, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga ko'ra 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabr-dan hisoblangan.

Sultonov Subxonqul – 1890-yil Buxoro shahrida tug'il-gan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. U xalq dushmanlari bilan aloqadorlikda ayblangan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 67 va 66-bandlariga ko'ra 10 yil mud-datga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo mud-dati 1937-yil 15-noyabr-dan hisoblangan.

Sultonov Husayn – 1896-yili Buxoro shahrida tug'il-gan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. O'zSSR Jinoyat kodeksining 67 va 66-moddasi 1-bandiga ko'ra 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabr-dan hisoblangan.

Umarov Latif – 1901-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining guruh rahbarlari-dan biri. Qamoqqa olingunga qadar feldsherlar maktabi di-rektori bo'lib ishlagan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 67 va 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-noyabr-dan hisob-langan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonida).



TARANNUM

Vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarimiz qalbida yanada kamol toptirish yo'lida adabiy, ma'naviy-ma'rifiy kechalarning o'z o'rnini bor. Barcha jabhadada yakdillik, maqsadlar mushtarakligi, ezgu ishlar yo'lida birlashish har birimizning oldimizdagi zaruriy vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

2023-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik, vatanparvarlik, mardlik va jasorat singari ezgu fazilatlar aks ettirilgan "Vatan manzumasi" nomli dastur tayyorlanib, jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan edi.



"VATAN MANZUMASI" VILOYATLARDA

Mazkur adabiy-ma'rifiy kecha Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli yurtimizda shakllangan "Xalq bilan armiya – bir tan-u bir jon" degan ezgu an'anani, ayniqsa, ijodkorlar va harbiy xizmatchilar orasida yakdillikni yanada mustahkamlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan katta ahamiyatga ega. Dastlab poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyida o'n kundan ziyod uzluksiz namoyish etilgan ushbu adabiy dastur keng jamoatchilikning taklifiga ko'ra, respublikamizning barcha hududlarida tomshabinlarga taqdim qilingan edi.

Shundan so'ng "Vatan manzumasi" dasturi an'anaviy tus olib, joriy yilda ham yangicha ko'rinish, original ijodiy yondashuvlar asosida muxlislariga taqdim etildi. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi uchun safarbarlik, Vatanni sevish, mardlik va jasorat singari ezgu fazilatlar ulug'langan va galgi dastur ham ziyolilar, yoshlar, harbiy xizmatchilar, talabalar, maktab o'quvchilari va boshqa ko'p sonli tomshabinlarning olqishiga sazovor bo'lmoqda. Zotan, unda bugungi osoyishta hayot, yurtimizdagi ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikning ahamiyati yorqin she'riy-musiqiy kompozitsiyalar orqali o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida mardona halok bo'lgan harbiylarning porloq xotirasiga ehtiram, davlatimiz tomonidan ularning oilasi va farzandlariga qaratilayotgan e'tibor ham o'z aksini topganligi ushbu dasturning ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, dastur davomida mard va jasur askarlarning ona Vatanni asrab-avaylash haqidagi arslonning na'rasidek jaranglaydigan hayqiriqlari, "Alpomish qaytdi eliga" kompozitsiyasi davomida chor atrofdan sahnaga alpoqmat yigitlarning chiqib kelishi ham tomshabinlarga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatmoqda. Taniqli shoirlarning Vatan va ona xalqqa sadoqat tuyg'usi ifodalangan she'rlarini ijodkor yoshlar qalbdan his qilib, jo'shib o'qigani ham tadbir ishtirokchilarini to'qinlantirib yuborganiga guvoh bo'ldik. Dastur mazmun-mohiyatiga mos ravishda tanlangan elparvarlikni madh etadigan qo'shiqlar ham uning saviyasini oshirishga xizmat qilganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Joriy yilning mart oyida "Turkiston" saroyida bir haftadan ziyod turli sohalarda vakillariga, yoshlarga namoyish qilingan ushbu dastur ijodkorlari ayni kunlarda hududlarda ijodiy safarni davom ettirishmoqda. Shu kungacha Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlarida muvaffaqiyatli namoyish qilinib, tomshabinlar tomonidan olqishlar bilan kutib olindi.

Ma'mura ZOHIDOVA,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

O'LMAS JAMOL TAVALLUDINING 90 YILLIGI

TOJIKISTONNING URGUTLIK FARZANDI

"Chor devon" sohibi, "Zullisonayn shoir", "Ikki chaman bulbuli", "Tojikistonning urgutlik ardoqli farzandi...". Bu kabi ta'rif va e'tiroflar yaqinda Samarqandning so'lim Urgut shahrida bo'lib o'tgan adabiy-ma'rifiy tadbirda qayta-qayta tilga olindi.

U bundan 90 yil muqaddam – 1934-yilning 17-may sanasida Urgut shahrida tug'ildi. Oilada dastlab ko'p yo'qotishlar bo'lgani sabab bolaga O'lmas deb ism berishdi. Otasi Jamol nonvoy, onasi Mehriniso baxtiga u sog'lom va durkun bo'lib voyaga yetib boshladi. Maktabga bordi. Zukko va tiyrakligi bilan tezda ko'zga tashlandi. U har jihatdan peshqadam bo'lsa-da, g'oyatda kamtarin, jo'rajon, mehribon edi sinfdoshlariga...

Nimadir sabab bo'lib, Jamol nonvoy oilasi Tojikiston poytaxti Dushanbe shahriga ko'chadi. Yangi shahar, yangi maktab, yangi sinfdoshlar...



Tojikistonlik mashhur o'zbek shoiri, jamoat arbobi O'lmas Jamol tug'ilib o'sgan xonadonda boshlangan adabiy-ma'rifiy tadbirda ishtirok etarkanman, xayolimdan dastlab kechganlari shular bo'ldi. Ha, u olis Dushanbeda yashab, har qancha nash'u namo topgan esada, mazkur mo'jazzgina xonadon va unga bog'liq armonli-totli xotiralardan aslo ayro tushmagan. Shoir iborasi bilan aytganda bu xotiralar unga suyanich tog'lar, qoyalari bo'lib o'tidan ergashib yurgani muqarrar.

Ma'lumki, O'lmas Jamol "Surur", "Ko'zimga nur oldim chaqmoqlarindan, Qushlarning sasidan qabimga surur. Soflikni o'tindim buloqlarindan, Tog'laring anglatdi neligin g'urur..."

O'lmas Jamol tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbirda ko'plab shoir-yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar, tojikistonlik mehmonlar, Urgut tuman jamoatchiligi vakillari,

o'quvchi va talabalar hamda shoiring oila a'zolari qatnashdi. Tadbir shoir tug'ilgan xonadonda boshlanib, shoir xotirasiga yodga olindi, uning ismi-sharifi bitilgan barelyef ochildi. Shoiring ruhi pokiga bag'ishlab Qur'on oyatlari tilovat qilindi.

Shundan so'ng O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarining amaliy ifodasi sifatida bunyod etilgan 154-sonli umumta'lim maktabida tadbir davom etdi.

Ma'lumki, O'lmas Jamol "Surur", "Masrur", "Manzur", "Ma'mur" nomli aruziy majmualar, ya'ni "Chor devon" yaratgan. Bu borada mumtoz she'riyatimiz an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirgan ijodkorlardan edi. Shoir devonlaridan o'rin olgan g'azallardan yuzga yaqini kuyga solingan. Faxriddin Umarov, Kamoliddin Rahimov, Jo'rabek Murodov, Jo'rabek Nabiyeov, O'rinbek Hamda-

mov, Ozzbek Nazarbekov kabi mashhur hofizlarimiz tomonidan ijro etilgan mazkur qo'shiqlar xalqlarimiz ma'naviy mulkiga aylangan. Adabiy-ma'rifiy tadbirda O'lmas Jamol she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlardan namunalar ijro etildi. Ayniqsa, uning "O'zbekiston o'g'lidurman, tojigim gufto pisar..." deb boshlanuvchi shir-u shakar yo'nalishida yozilgan qasidasi tadbir qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi.

Az qadim o'zbek-u tojik –

et bilan tirnoq erur,
Qon-qarindoshlik shiorash,
qo'lida bayroq erur,
Bir-birin mehmonga chorlab,
yo'lida mushtoq erur,
Toqati hijron nadorad,
vasliga chanoq erur,
Ushbu do'stlik har qadamda
topgusi fath-u zafar.
Orziqlik ERGASH

DO'STLAR DIYDORI

Kuni kecha O'zbekistonning Tojikistondagi elchixonasida bir guruh ziyolilarimiz ishtirokida o'tkazilgan tadbir "Vatandoshlar" jamoat fondi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda "Zakovat" intellektual o'yini tashkilotlari hamkorligida tashkil etildi.

Muhtasham elchixonamiz binosida tashkil etilgan "Zakovat" intellektual o'yinida faol qatnashgan olti jamoa orasidan Tojikistonda o'zbek tilida nashr etilayotgan "Xalq ovozi" gazetasi-yang yosh xodimlari g'olib bo'ldi.

Biz bu o'yinni O'zbekiston televideniyesi orqali ko'rib, unda qatnashishni orzu qilib kelardik, – deydi g'olib jamoa saradori Zuhriddin Umarov. – Mana endi nafaqat qatnashish, balki g'alaba qozonishga ham muayassar bo'ldik.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti Munajat Yo'lchiyeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan Mamlakatxon Ulashvaning "Munajat" deb nomlangan kitobi taqdimoti ham ikki xalq ziyolilari ishtirokidagi davraga yanada fayz bag'ishladi.

Kitob taqdimoti Tojikistonda o'tkazilishi men uchun hayajonli kechdi, – deydi Munajat Yo'lchiyeva. – Chunki keyingi

yillarda yurtimizda yuksak e'tibor berilayotgan maqom san'ati har ikki xalq uchun ham qadrlidir. Kitob taqdimotiga tojikistonlik maqom ustalari, ijodkor ziyolilar kelishgani esa men uchun ham, shogirdim Mamlakatxon uchun ham quvonarli bo'ldi.

Ishtirokchilar uchun Munajat Yo'lchiyeva, Og'abek Sobirov, Mardon Mavlonov tomonidan o'zbek va tojik tillarida kuylangan qo'shiqlar davraga o'zgaracha shukuh ulashdi.

Tadbir yakunida Munajat Yo'lchiyeva, Og'abek Sobirov hamda "Vatandoshlar" jamoat fondi tomonidan elchixonamuzeyi va Dushanbe shahridagi 103-sonli o'zbek maktabi uchun kitoblar va esdalik sovg'alari tuhfa etildi.

O'zbekiston Respublikasining Tojikistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ergash Shoimatov yig'ilganlarga minnatdorlik bildirib, bu tadbirlarning davomida Tojikistonning turli joylarida nishonlanayotgan, Tojikistonda yashab o'zbek tilida ijod qilgan taniqli g'azalnavis shoir, do'stlik kuychisi O'lmas Jamol tavalludining 90 yilligi tantanalarga ulanib ketishida ramziy ma'no borligini bildirib o'tdi. Zero, shoiring o'zi yozganidek:

Ikki tilda so'zlaguvchi bir elim yobad kamol,
Xizmatashro az dil-u jon mekunad O'lmas Jamol.

Mansur JUMAYEV

ZARDA

Taxminan bir oy oldin ijtimoiy tarmoqlarda qardosh qozoq yigiti o'zbek xalqining olijanob va mardligi chegara hududlarimizni suv bosgan chog'i ko'rsatgan amaliy ko'magida yaqqol bilindi, degan e'tirofdan faxr-iftixor tuyg'ularini tuygan edik...

Ammo, misqolab yig'ib, botmonlab sohasan, deganlaridek bag'rikeng elimizning ana shunday insoniy fazilati baxsh etgan surumi kuni kecha bir to'da lattaparast xotinlar olomoni ko'rsatgan tomosha seldek yuvib ketdi. Axir, internet, ijtimoiy tarmoqlar dunyoning chekka bir burchagida ro'y bergan har qanday hodisani o'zining manfaati nuqtai nazaridan butun afkor ommaga kaftdek ko'rsatadigan vosita bo'lsa...

O'zbek tiliga "Xarid vasvasasi" deb tarjima qilingan "Shopogolik" filmida qahramon qiz xarid qilishga mukkasidan ketib, hatto bank krediti evaziga bo'lsa ham kiyim-kechak sotib olishdan o'zini to'xtatolmay qoladi. Natijada qarzga botib, nochor ahvolda tushadi. Shifokorlar unga "shopogolizm" tashxisini qo'yishadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bu dardi bedavo yolg'izlik va depressiya paytida o'zini yupatish, taskin berish uchun qilinadigan harakat ekan.

Kuni-kecha ijtimoiy tarmoqlarda chegirma e'lon qilingan kiyim do'konida xotinqizlar ishtirokida odam uyaladigan darajada ur-yiqit yuzaga kelgani tasvirlangan video tarqaldi. To's-to'polonda jon-jahdi bilan talvasada o'zini "Umika shop" do'konini ichkarisiga urayotgan o'zbek ayollarini ko'rib hayratdan yoqa ushlaysiz. Kishining bu qadar vasvasaga tushishiga nima sabab bo'lishi mumkin? Yo'qchilikmi? Ongsizlikmi? Ko'zi ochlikmi? Nima?!

TEKIN BO'LSA... GULMIX YUTAMIZMI?

Bu "ko'pkari"da yoshi ulug' ayollarining borligi o'ta achinarli hol. Balki ularga "shopogolizm" tashxisi qo'yilmaganidir... Ehtimol, ular muhtojlikda kun kechirishmasam ham. Biroq bu darajada pastlik, pastkashlik qalbning, e'tiqodning xastaligidan darak emasmi? Nahotki, ularning boshpanohi, otasi, aka-ukalari, o'g'illari, o'riyatli kishisi bo'lmasa?! Tasvir ostida

qoldirilgan izohlarning aksariyatida ayollarining o'rangani, taqvoli ekaniga urg'u berilgan. Ularning bu qilmishi ikki hissa isnodga sabab emasmi? Qolaversa, hech kimdan hayo qilmagan, tortinmagan taqdirida ham inson avvalo, o'zidan, O'zidan uyalmaydimi? Uyatini yo'qotgan kishining qalbidagi e'tiqod, iymon bo'lishi mumkinmi?!

Ajablanarlisi, izohlar orasida: "Nima bo'libdi, shunga shunchami" qabilida fikrlar ham bor. Boshqa bir kuzatuvchi esa: Ayolim "bunday sharmandalikdan ko'ra kiyimsiz o'tirganim afzal dedi", deya kuyunchaklik bilan munosabat bildirgan. Rostdan, "latta jang'da eshig-u ilgich, kamera-yu kompyuter pachoq bo'lganiga qarab, bu tolei past, manglayi qora



poshikastalar do'konga o'tlanarkan, azbaroyi yupunlik vahidan biror boyvuchcha qo'shnidan "abaya"larini ijaraga olganmi, degan ishtiboh ham yo'q emas.

Xo'sh, taniqli insonlar shaxsiy hayotini ikir-chikirigacha erinmay muhokama qiladigan, yarim kechasi shirin uyqusidan kechib, "falonchi falonchining zurriyodi, aldasam Xudo ursin!" degan qasam aralash post qo'yadigan bedor, jonsarak analitiklar nega jim? O'zini xalqparvar, millatparvar ko'rsatishga mohir jigarso'xta blogerlar qaysi oshiyoni balandda nima-ning chamasida ekan?!

Bu kabi sharmandalikka ziyolilar qarshi turib, qat'iy e'tiroz bildirmasa, mahalla oyoqqa turmasa, bundan ham battarroq tomoshalar bo'lmaydimi? Oila va xotinqizlar qo'mitasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita vakillari bu holatga nega munosabat bildirmayapti?

"Umika shop" do'konining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida aytilishicha, savob olish niyatida narxlar o'n karra pasaytirilganmish... Agar niyatlari ezgu va xolis bo'lsa, narx-navo doim arzon tutib turilsa bo'lmaydimi?

Yana bir savol. Bu kabi holatni tasvirga olib, tarqatishdan savobtalab do'konkor qanday manfaat ko'radi? Chegirma ham, to's-to'polon ham qora piar uchunmi?

O'tgan yillar davomida doshqozonda pishgan tekin oshni, avtosalonida anqoga shafe shartnomani, bozordagi "Elga xizmat" rastasidagi arzon kartoshka-piyozni, covid mavsumida sarimsoqpiyozi talagan olomon qachondir kitob talasharimikan? Menimcha, bizga faqat ana shunday talomon yarashadi!!!

Muyassar IBROHIMOVA,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Jadid
adabiy, diniy ma'rifiy va ijtimoiy-hududiy gazeta

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning
birinchi o'rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifiga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan
195115 raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 6291
Lotin yozuvidagi adadi – 11962
Media kuzatuvchilar – 12873
Buyurtma: G – 540.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:20
Sotuvda narxi erkin.

